

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETITI

BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

ABATOVA (HAYDAROVA) ZULFIYA O'KTAM QIZI

5111700 - BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISH KUNDUZGI TA'LIM YO'NALISHI
BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN **«KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI
AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN
FOYDALANISH»** MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.n., dost. **R.N. ERGASHEV**

GULISTON – 2015

M U N D A R I J A

KIRISH.....	
I bob. BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalarining tutgan o'rni	
1.2. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning holati.....	
1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashning mazmun va mohiyati.....	
II bob. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI ORQALI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI TIZIMI.....	
2.1. Dars jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilar axloqiy tarbiyasini kuchaytirish tartibi.....	
2.2. Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda interaol metodlar va zamonaviy vositlardan foydalanish.....	
2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqarida axloqiy tarbiyalashni tashkil etish shakllari.....	
2.4. Tajriba-sinov mshg'ulotlar natjalari va ularning tahlili.....	
XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
ILOVALAR.....	

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan.

Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g'oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan. Ta'lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. SHu asnoda xilma-xil ta'lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo'lgan.

Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. YOzish-o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan [.....].

YOshlardagi ta'lim-tarbiyaning asosi oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida hosil qilinsada, uning tizimi amalga oshirilishi maktablarda tashkil etiladi. O'quvchi o'rta umumiy ta'lim maktablarida o'zini o'rab turgan atrof-muhit haqida, tabiat hodisalari, yil fasllarida bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida, ayniqsa jamiyat va uni rivojlantiruvchi kuchi sanalgan insonlar, ularning mehnat faoliyati, ijodi, ong, tafakkur mahsuli haqida bilib oladilar. SHuning uchun ham maktablarda o'quvchilarga berishga mo'ljallangan ta'lim mazmuni chuqur ilmiy asoslangan holda tanlanadi. Maktab-ma'orif muassasalari tarkib topib, ularda

yoshlarga o'qitiladigan ta'lim mazmuni olimlar va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilganda xalq og'zaki ijodi namunalari alohida e'tiborga olingan.

Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yoshlarga milliy tarbiya berishga ehtiyoj juda ortdi. Chunki xalq og'zaki ijodi millat paydo bo'lish jarayonida minglab yillar davomida tajribada sinab kelingan, millatning ruhi chuqur singgan qarashlarni o'zida mujassamlashtirganlik xususiyatiga ega.

Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo'lgan barcha o'rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi.

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan holda berilishi, bilim egallash jarayonida tarbiyalanib borishi, tarbiyaviy ta'sir etilayotganda bilimlarning boyishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prezidentimiz I. Karimov yoshlarning tarbiyasini quyidagicha ifodalaydi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi".¹ Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish engil amalga oshadi.

O'rta umumiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg'un tarzda o'quvchilarning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi.

O'quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinflardayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko'nikma va malakalar tarkib topib boshlaydi.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e'tibor qaratiladi. Jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga mazkur jamiyatning ehtiyojini to'la qondirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlab berish talabi qo'yiladi.

¹Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. Т. "Маънавият", 2008. 4 б.

Bu talabning bajarilishi jamiyatning rivojlanishi, taraqqiyotini aks ettiradi.

Milliy mustaqillikka erishib, o'zining yangi taraqqiyoti boshidan kechirayotgan Respublikamizda huquqiy-demokratik jamiyat qurish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning yanada jadallashuvi yoshlarni aqliy va axloqiy ulg'ayishlari, jismoniy va ruhiy barkamol bo'lishlariga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarning maktab ta'limini chuqur egallashlari, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning to'g'ri anglashlariga va imkon darajasida o'z hissalarini qo'shish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning tarkib topishini ta'minlaydi. Faqat o'quvchilarga beriladigan bilimlarning mazmuni to'g'ri tanlanishi, o'quv reja, dastur va darsliklarda mukammal eks ettirilishi zarur bo'ladi. O'quvchilarga xalqimizning boy ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy merosini etkazib berish hozirgi paytda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da: "YOsh avlodni ma'naviy-tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi", degan firlar bildirilgan [2]. Chunki, yoshlarning voyaga etishi, kamol topishlari maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayonining qay darajada ilmiy asosda yo'lga qo'yilganiga, qanday bilimlarning kimlar tomonidan berilayotganiga, qaysi usul va vositalardan foydalanayotganligiga har tomonlama bog'liqdir. Shuning uchun ham maktab ta'limi tizimining bara bosqichlari bir maqsadga – o'quvchilarni etuk bilimdon va axloqli qilib o'stirishga yo'naltirishi zarur. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi bosqichlarda ilm egallash uchun asos hisoblandi. Mana shu asos qancha mustahkam bo'lsa, o'quvchilarning aqliy salohiyati shuncha yuksak darajaga ko'tarila oladi.

O'quvchilarning har tomonlama tarbiyasi bilim asoslarini o'zlashtirish, ongining o'sishi, tabiatdagi va jamiyatdagi o'zgarishlarni to'g'ri tushunish, hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonlarini harakatga keltiruvchi texnika va texnologiyalardan samarali foydalana olishini taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya bola

dunyoga kelgandan boshlab berib boriladi. Oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida dastlabki dunyoqarash asoslari tarkib topib boshlaydi.

Reja asosida, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda, boshlang'ich sinflarda ilmiy asosdagi, tizimlashgan bilimlarni olishga kirishadi.

Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir.

SHu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Buning uchun har bir fanning mazxmuniga kirgan mavzular mutaxassis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to'plangan ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig'indisi xalq pedagogikasining mazmunini ifodalaydi.

Xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va donishmandlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga, mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishiga katta hissa qo'shadi. SHu tufayli ham boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi.

Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli soʻzlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali oʻz xalqining oʻtimishini, mehnat faoliyatini, orzu-havas va intilishlarini bilib oladi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari oʻquvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol oʻzlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qoʻllangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergan tushunchalarni aks ettiradi.

Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga etkaziladi.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi qisqa, aniq maʼno anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha boʻlgan har xil turdagi namunalarni oʻz ichiga oladi. Bularning hammasida inson kamoloti, aql-idroki, kuch-qudrati, axloq-odobi, mehnat faoliyati va mahorati talqin qilinadi.

Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, taʼlimning har bir bosqichida oʻrganilishi mumkin boʻlgan xalq ogʻzaki ijodi namunalari mavjud boʻlib, ularni toʻgʻri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda oʻrgatish oʻqitishning samaradorligini oshiradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, taʼlim va tarbiyaning mazmuniga oʻzgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ogʻzaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir. SHuning uchun ham bu muammoni oʻrganishni dolzarb deb hisobladik.

Mustaqil Oʻzbekistonning rivojlanish yoʻli negizlari boʻlgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning maʼnaviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq ogʻzaki ijodi namunalari eng taʼsirchan vosita boʻlib xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlari tomonidan xalq ogʻzaki ijodi namunalari va ularni yoshlarga oʻqitish muammosi muntazam oʻrganib kelingan.

H.Zarifov, I.Afzalov, M.Alaviya, M.Murodov, G'.Jahongirov, T.Mirzaev, M.Obidova, Z.Husainovalarning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi namunalarining turli janrlari, paydo bo'lishi va taraqqiyot masalalari nazariy jihatdan asoslangan [.....].

Xalq og'zaki ijodi namunalarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini ayrim sinflarda o'qitilishi muammolarini Z.Mirtursunov, M.Sherboev, O.Mo'minov, U.Xolmatov, O.Safarov, M.Isaeva va boshqalar tadqiq etishganlar [.....].

Olimlar O.Musurmonova, Z.Boybekovalar "O'zbek xalq pedagogikasi"ning paydo bo'lishi, turlari, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini ancha mukammal o'rganib chiqqanlar [.....].

Professor Z.Mirtursunovning tadqiqotlarida o'zbek xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalarida o'quvchilarni axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy tarbiyalashdagi o'rni chuqur tahlil etilgan [.....].

Olima Z.Husainova o'zbek xalq topishmoqlarining o'quvchilar aqliy tarbiyasiga ta'sirini tadqiq etgan [.....].

Topishmoqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, taqqoslashi, xulosalar chiqarishi, tez va mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi vosita ekanligi ko'rsatib berilgan. Yana bir qancha olim va mutaxassislar xalq og'zaki ijodi namunalarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishga qo'l urganlar.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlarga suyanan holda bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Kichik yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish" deb belgiladik. Mavzuning dolzarbligining yana bir jihati shundaki, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda asosan 2000 yillargacha bajarilgan ishlar aks etgan. Keyingi o'tgan o'n besh yil davomida xalq og'zaki ijodi namunalarining boshlang'ich sinflarda o'rganilishi ma'lum darajada yangilangan. Ushbu yangiliklarni tahlil etishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyasiga xalq og'zaki ijodi namunalarining ta'sirini aniqlash va samaradorligini orttirish yo'llarini o'rganish.

BMIning ob'ekti: Kichik yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish jarayoni.

BMIning predmeti: o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini o'z ichiga oladi.

BMIning dolzarbligi, maqsadi, ob'ekt va predmetidan kelib chiqib, tadqiqotning quyidagi vazifalarini belgilab oldik:

1. boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalarining ta'lim mazmunidagi o'rnini o'rganish.
2. Boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini aniqlash va ularning o'quvchilar axloqiy tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilish.
3. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan xalq og'zaki ijodi namunalarining hozirgi holatini o'rganish.
4. Boshlang'ich sinf dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalarida berilgan xalq og'zaki ijodi materiallarining o'quvchilarga qay darajada mosligini aniqlash.
5. Ilg'or boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini kuzatish va tahlil qilish. Tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazish va natijalarini qiyosiy tahlil etish.
6. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalarini pedagogik texnologiya asosida interfaol metodlardan foydalangan holda o'qitish metodikasini sinab ko'rish va afzalligini aniqlash.
7. Kichik yoshdagi o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishning samarali yo'llarini belgilash.
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

BMI metodlari: mavzuga oid ilmiy va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, yozma va og'zaki so'rovlar, o'quvchilarning ijodiy ishlarini o'rganish, matematik-statistik tahlil.

BMIning metodologik asoslari sifatida buyuk allomalarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlari, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, jumladan: "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi yoshlar tarbiyasi haqidagi nazariy qarashlar, davlat vakolati tashkilotlarining me'yoriy hujjatlari, soha olimlari va mutaxassislarining ilmiy izlanishlaridan foydalanildi.

BMini bajarishda tajriba-sinov ishlari Guliston shahar 7-sonli maktabda hamda Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi 80-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borildi. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ochiq darslarini kuzatdik, o'zimiz sinov darslari o'tdik. Natijalar maktablarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan birgalikda muhokama qilindi.

BMidagi yangilik sifatida boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalarini pedagogik texnologiyalar asosida, interfaol metodlardan foydalangan holda o'qitilishi, dars jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini ongli va faol o'zlashtirishlari bo'ldi. Ayniqsa sinfdan va maktabdan tashqarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish o'quvchilar axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Undan tashqari, maqollar, ertaklar, qo'shiqlar, tez aytish va hikmatli so'zlarning o'quvchilar axloqiy tarbiyasiga ta'sirini kuchaytirishning ayrim shakllari, usullari, vositalari ishlab chiqildi va shakllantirildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning natijasi sifatida boshlang'ich sinflarda dars jarayonida va undan tashqarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishning uslubiy ishlanmasi tayyorlandi. Xalq orasidagi o'nlab maqollar, topishmoq va ertaklar to'plandi. Ularning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati baholandi. Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy jihatidan shundan iborat bo'ldiki, boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning loyihasi tayyorlandi. Unga asoslanib o'tkazilgan darslarda o'quvchi va o'qituvchi hamkorlik qilishga hamda juda faol ishtirok etishga sharoit yaratildi. Darslarni muammoli tarzda o'tkazish shart-sharoiti ishlab chiqildi. Bir qancha interfaol metodlardan foydalanishning tartibi ko'rsatib berildi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, ularning tarkibiga kirgan etti fasl (poragraf), xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib betni tashkil qildi.

1-bob. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalarining tutgan o‘rni

Hayotda inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar, u o‘zgalar bilan muomalamunosabatda bo‘ladi. Ular o‘zaro aloqa qilmay yashay olmaydilar. Bu ijtimoiy qonuniyat. Har bir kishining fe‘l-atvori turlicha. Ular nihoyatda murakkabdirlar.

Biroq turmush insonning xatti-harakatlarini ma’lum chegarada belgilangan me’yorda bo‘lishini taqozo qiladi. Ana shu chegarani ta’minlovchi munosabatni odob deb ataymiz.

Insoniyat tarixidagi butun tajribalarga suyanan holda yaratilgan urf-odatlar kabi odob-axloq qoidalari ham tarkib topgan. Odob va axloq qoidalarining hammasi bir kishi tomonidan bitilmaydi. Zotan, ular inson hayotiy tajribasining umumlashgan boy mahsulidir.

Ma’naviy etuklik insonning ehtiyojiga aylanib qolishi zarur. Odob qoidalari hamma uchun bajarilishi zarur bo‘lgan hayotiy talabdir. Axloq kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob kishining ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomila munosabati tarzida namoyon bo‘ladi.

“Odob” (arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi) – xulq atvor, yurish-turish madaniyatining tashqi va ichki jihatini ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning xatti-harakatida, o‘zaro munosabatida (oilal, mehnat jamoasi va marosimlarda) namoyon bo‘ladi.

Odob-axloq normalari kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi va bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga oid qoidalar (masalan sharmu hayo, kamtarlik, xush-muomalalik, ozodalik singarilar)ni o‘z ichiga oladi. Odob-axloq ta’lim-tarbiyasi amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Odob va axloq qoidalariga to'la amal qilish insonlarning o'zaro hurmat-ehtirom bilan tinch-totuv yashashlarini ta'minlaydi. Odob va axloq qoidalariga kam e'tibor beriladigan har qanday oilada, jamiyatda dilozorliklar, beandishaliklar va shu kabi insoniy fazilatlarga dog' tushadi.

Qaysi mamlakatda, qanday jamiyatda odob va axloq qoidalariga yaxshi e'tibor berilsa, shu joyda hayot farovon, kishilarning ruhi tetik iymon-e'tiqodi mustahkam bo'ladi.

O'tmishda oilada farzand tarbiyasiga, ularning odobi, axloqiga alohida e'tibor berilgan. Agar oilada o'g'il tug'lsa uni jasur, jisman baquvvat, ilmu odoblik bo'lib etishmog'iga, biron-bir kasb egasi bo'lishiga sharoit yaratilgan. Odob va axloqning mukammal bo'lishi haqida qayg'urilgan va ularga muntazam amal qilish nazorat ostiga olingan.

Qiz bolalarga ham ilm va hunar o'rgatilgan. Ayniqsa, ularning odob va axloqiga birinchi darajali vazifa sifatida qaralgan.

O'zbek xalqi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy xalqlardan sanaladi. Uning urf-odatleri, odob-axloq qoidalari ham ana shu ko'hna tarix quchog'ida tarkib topgandir.

Biz yashab turgan davrdan 1000 yillar oldin bobokalonimiz YUsuf Xos Hojibning tarbiya haqidagi fikrlari, inson axloqi va odobi sohasida yaratgan asarlari hozirda ham ma'naviyat xazinasida tengsiz javohir bo'lib qolmoqda. U o'zining "Qutadg'u bilig" – "Saodatga yo'llovchi bilim" asarida insoniy fazilatlar: axloq va odob xususida zikr qilgan. Uning asarlarida yuksak insoniy fazilatlarni egallash, Vatanni, tabiatni, barcha mavjudodni e'zozlash, yaxshilikka, yaxshilik bilan nom qoldirishga, savob ishlarni chin dildan chiqargan holda bajarishga da'vat etilgan [.....].

Buyuk bobokolonlarimiz Abu Ali Ibn Sino ham axloq haqida fikr bildirib "Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilish ilmidir" deb odob va axloqni inson kamolotidagi ahamiyatini yuksak baholagan edi [.....].

"Insonda doimo turadigan husn va latofat, hayo ila iffatdir. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir" [.....].

Abu Ali Inb Sinoning bu ikki falsafiy fikridan inson uchun axloq, hayo va iffat nechog'lik zarur ekanligini anglash mumkin.

Buyuk allomalar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi ulug' zotlar, fan olamining yorug' yulduzlari bo'lib, aql, odob va ilmda butun olam tan olgan siymolar bo'lib qoldilar. Ularning falsafiy va ilmiy asarlari ma'naviyatimizni boyitishda bebahodir.

Axloq inson uchun muhim fazilat ekanligini barcha o'z fikri va aql-zakovati, zehni bilan anglamog'i, uning hayotiy zarurat ekanligini tushunib etmog'i lozim. Axloq qoidalarini bajarishni kimdandir qo'rqqanidan emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida his etib, o'z xohishi bilan unga doimo rioya qilishi zarur. Odob qoidalarini yoshlikdan o'rganib, unga qat'iy rioya qilgan bolalar va yoshlar keyinchalik o'z hayot yo'llarini shu mash'al yordamida yorug' ko'radilar, yorqin kelajak sari adashmasdan boradilar.

Odob ta'limini odamzod o'z atrofidagi insonlardan, bolalar esa ko'proq ota-onaga va muallimlaridan oladilar. Muallimlarning, ota-onalarning va o'zidan kattalarning odob to'g'risidagi nasihatlarini jon-dildan qabul qiluvchi, kattalarning yaxshi fazilatlarini o'zlashtiruvchi bola, o'smir va o'spirin albatta, odobli bo'lib o'sadi.

Oilada barcha ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlar yoshlarga singdiriladi. Ularga doimiy amal qilish nazorat ostiga olinadi. Oilada beriladigan axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi bolalarda ijobiy sifatlarni hosil qilish, ularni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, axloqiy hislatni rivojlantirish hamda ularda ijobiy xatti-harakat, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iboratdir. Axloqli insonda quyidagi sifatlar tarkib topgan bo'lishi zarur deb hisoblanadi.

Burch – kishining biror shaxs, oila jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda ob'ektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch iymon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan

chambarchas bog‘liq. Oilada ota-onalik burchi, farzandlik va boshqa burchlar bor. Burch nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o‘zgarib boradi.

Vijdon – kishining kundalik faoliyati, xatti-harakati, fe‘l-atvori uchun oila, jamoat, jamiyat va Vatan oldida ma’naviy mas’uliyat his etishdir. SHu yuksak axloqiy tushuncha bolani ijobiy xatti-harakatlarga undab va shunga moyil qilib, o‘z faoliyatiga o‘zi baho berishga olib keladi.

Vijdon, burch, adolat, mehr, poklik, halollik kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan uzviy bog‘liq.

Nomus - or, oriyat-kishining o‘z mavqeini saqlash, ulug‘lash va ardoqlash, xijolat tortish, uyalish tuyg‘ularini, oila va ajdodlar sha’niga dog‘ tushurmaslik ma’nosini ifodalovchi tushuncha. Bundan tashqari hazar qilish, or qilish ma’nolarini ham bildiradi. Nomusli odam ma’naviy qadriyatni moddiy boylikka almashishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Xalqimizda qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlay oladi, degan naql ham ishlatiladi. Nomus insonning to‘g‘rilik, adolat, haqqoniylik, oliyjanoblik, qadr-qimmat kabi xislatlariga beriladigan baho bilan bog‘liq. Odamlar o‘z nomusi, oila nomusi deb kurashadi. O‘zbek xalqida bu tushuncha yuksak insoniy qadriyatlardan biri sanaladi.

Hayo – muhim axloqiy me’yor, ayni paytda xulqiy go‘zallikning asosiy belgilaridan biri. Hayo uyat hissi bilan o‘xshash bo‘lsa-da, aslida andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon bo‘ladi, u nafosat bilan uyg‘unlashib ketadi.

Hayotning insoniy sifat tarzida mavjudligi hayolilik bo‘lib, kishining ma’naviyatli, ma’rifatli, nomusli, ochiq ko‘ngilli ekanligini anglatadi.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun borliq uning baxt saodatiga xizmat qilishi lozim.

Insof – adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg‘usi; ishda, kishilar munosabatida halollik, to‘g‘rilikni anglatadigan tushuncha. Insofli kishi ezgulik, yaxshilik, savob ishga tashna bo‘lib yashaydi.

Sabr – g‘am-kulfat, azob-uqubatlarga chidash, toqat qilish; o‘z ixtiyori bilan nafsni tiyish, qanoatli bo‘lish. Qur‘onning bir necha oyatlarida musulmonlarning sabrli bo‘lishiga da‘vat bor. Hadislarda inson uchun sabrdan yaxshiroq va ulug‘roq ne‘mat ato etilmagani bayon qilingan.

Kamtarlik – insonning ma‘naviy qiyofasini belgilaydigan ijobiy hislatlardan biridir. Kamtar kishi doimo el hurmatida bo‘ladi, uni hamma qadrlaydi. Kamtarlik hayotda o‘z mavqei, qobiliyati, imkoniyatiga yarasha faoliyat ko‘rsatish, o‘zini odobli tutish demakdir.

Halollik va rostgo‘ylik – insonning ma‘naviy go‘zalligidir. Halollik o‘z mehnati bilan kun ko‘rish birovning haqiga xiyonat qilmaslikda, vijdonan poklikda namoyon bo‘ladi. Rostgo‘ylik esa hayotda doim rost so‘zlashdir.

Vatanparvarlik – bu tushuncha juda keng tushuncha. Vatanparvarlik deganda biz odatda o‘z yurti, diyori uchun jon fido qilishga tayyor turishni o‘z elini sevishni, unga sadoqatli bo‘lishni tushunamiz. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida yuqoridagi mavzudagi asarlar juda ko‘p va ular o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda juda qo‘l keladi.

Ma‘lumki, inson barkamolligi uning ma‘naviy qadriyatlar haqidagi xalq og‘zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarida doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi materiallarida axloq-odobga oidlari, insonning ma‘naviy dunyosini aks ettiradi. Ularda ijtimoiy va maishiy hayotning turli sohalari qamrab olingan, xalqning asrlar davomida to‘plangan, tildan-tilga, dildan-dilga ko‘chib kelayotgan insoniy qadriyatlar ibratli satrlarda ifodalangan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganishga mo‘ljallangan xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, ongi va tushunchalarining rivojlanishi darajasiga mosligi, ularda hosil bo‘lib boshlagan axloqiy sifatlarning mohiyatlariga uzviy bog‘langan bo‘ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo'shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko'proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta'sirini inkor etish mumkin emas.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o'z ichiga olgan, kishilarning axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ'ib qilingan.

Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi.

Ertak – Boshqa xalqlardagi kabi o'zbek oilasida ham ertak (cho'pchak) aytib bermay bola o'stirgan ota-ona va kattalarni, yoki ertak eshitmay ulg'aygan yoshlarni tasavvur qilish qiyin. Buni tarixda o'tgan ilm-fan vakillari, shoir va adiblar, jamoat arboblari hammasi e'tirof etishadi.

Ertaklar asosan prozaik shaklda bo'lib, obrazlilik xususiyatiga egadir. Agar topishmoq, maqollarda ishtirokchi (personaj) kam, yoki alohidalikka qaratilgan bo'lsa, ertaklarning ishtirokchilari ko'p, hammasining o'ziga xosligi e'tiborga olingan bo'ladi.

Ertak qahramonlari kimlar va nimalar bo'lsa, o'shalarga xos xususiyat obrazlarda mujassamlashadi. Mehnatkash xalq vakili ochiqko'ngil, mard, mehr-shafqatli, halol, botir, aqlli bo'lsa, boylar ochko'z, birovning haqiga jabr qiladigan, qo'rqqoq, manman, befahm, farosatsiz qilib tasvirlanadi. Tulki-ayyor, bo'ri-yirtqich, ochko'z, quyon-sodda, qo'rqqoq, eshak-mehnatkash, tuya-chidamli, ot-kuchli va chaqqon, it-mehrli, sigir, qo'y-boylik va farovonlik timsolida ifodalanadi.

Ertaklar o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, botirlik, mardlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik singari axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Uchinchi sinfning “O'qish kitobi” (tuzuvchi mualliflar Muhabbat Umarova, Ra'no Tojiboeva, Xurshida Hamroqulova, Toshkent “O'qituvchi” 2014) darsligining xalq

ogʻzaki ijodi b.....ining 26-betidan 33-batgacha boʻlgan sahifalarida “Botir mergan va chaqimchi” (26-27), “Halollik” (28-30) “Donishmand yigit” (30-32) Ahillik ulugʻ baxt” (32-33) kabi ertaklar berilgan boʻlib, ularda oʻquvchilarni yaxshilik va ezgulikka chorlovchi jihatlar mujassamlashgan. Ertaklardagi sehrilik bolalarni har doim oʻziga rom qilgan. Boshlangʻich sinf darsliklaridan oʻrin olgan ertaklarning bir qismi sehrli ertaklar boʻlib, ular oʻquvchilarni oʻylashga, mulohaza yuritishga, ijobiy fikrlashga daʼvat etib, aqliy kamolotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bolalar ertaklar olamida real hayotda erishish qiyin boʻlgan turmush tarziga, orzu-havaslarning amalga oshishiga guvoh boʻladilar.

Ertaklarning asosiy qismi yoshlarga tarbiya berish, insoniy fazilatlarni shakllantirish maqsadiga qaratilgan yuzlab noyob taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan xalq ertaklari mavjudligiga qaramasdan, har bir sinfda toʻrt-beshtadan ortiq ertak oʻrganilmaydi.

Mahoratli oʻqituvchilar oʻzlari ertaklarni qiziqarli qilib soʻzlab berish bilan bir qatorda, uni oʻquvchilar tomonidan sahnalashtirgan holda oʻrganishlarini ham yoʻlga qoʻyadi.

Darsdan tashqarida, oilada, oynai jahon orqali koʻrsatiladigan ertaklar ham oʻquvchilarning shaxs sifatidagi kamolotiga kuchli taʼsir koʻrsatadi.

Topishmoqlar

Topishmoqlar ham xalq ogʻzaki ijodi namunalarining juda qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Kishilarning aql-zakovati, tafakkuri chuqur, keng va atroflicha mulohaza yuritish, kuzatuvchanlik, oʻxshatish hamda taqqoslash kabi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Topishmoqlar kishilarni oʻrab turgan narsalar, tabiat hodisalari, voqealar, buyumlar, jihozlar, odamlarning fazilatlari qiyoslash, qushlar, hayvonlar, oziq-ovqat, meva va poliz mahsulotlari haqida yaratilib kelingan va hozirgi kungacha boyitilib borilmoqda.

Topishmoqlar oʻxshatish, qiyoslash, koʻchim, ishora, kinoya, qochiriq yoʻli bilan soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatib, yashiringan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini taqoslash, imo-ishora qilish

orqali javobi aniqlagan jumboqlardir. SHuning uchun ham mamlakatimizning ayrim xududlarida topishmoqlarni jumboq deb ataydilar. Ba'zan matal degan so'z ham ishlatiladi. Barcha uchun tushunarli va ma'qul sanalgan topishmoq tushunchasi aynan uning mohiyatini aks ettiradi. Har qanday topishmoqda yashiringan ma'no bo'ladi. Uning javobi tinglovchining bilimi, dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi, hozirjavoblighi, oldin egallagan bilimlariga suyangan holda izlab topiladi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo'nalishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamololtiga ta'sir etishning vositasi bo'lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bu fikr keyingi boblarda batafsilroq tahlil etilishi sababli atroflicha to'xtalmadik.

Topishmoqlar qadimda ma'lum vaqtlarda aytilgan. Kattalar yoshlarning aqlini, ziyrakligini, hozirjavobligini sinab ko'rish maqsadida dam olish, oilaviy hordiq chiqarish paytlarida jamoa bo'lib topishmoqlarga javob topishni o'yin sifatida tashkil etganlar. Topishmoqlar bolalar uchun aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasi sanalib, yoshlarning tez va to'g'ri fikrlashi, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi tafakkur jarayonlarini shakllantirgan. Hayot va undagi mavjudod haqidagi bilim-tushunchalarini, idrok va tasavvurni, fikr-mulohazalarni kengaytirish uchun zarur ta'lim vositalaridan biri bo'lgani tufayli topishmoqlar soddadan murakkabga, osondan qiyinga, aniqdan noaniqqa, ma'lumdan noma'lumga borish usulida yaratiladi.

Topishmoqlar turli yoshdagi, har xil bilim va tajribaga ega bo'lgan kishilarga mo'ljallangan bo'lib, ayrimlari sodda, javobini osongina topish mumkin bo'lsa, ba'zilar juda murakkab bo'lib, bilimli, tajribali, kuzatuvchan kishilarni ham o'ylantirib qo'yadi. SHuning uchun ham boshlang'ich sinflarda topishmoqlardan foydalanish, ularni tanlashga, o'quvchilarga moslarini darsliklarga kiritish

maqsadga muvofiqdir. Topishmoq o'quvchi uchun juda sodda ham va o'ta murakkab ham bo'lmashligi kerak.

Topishmoqlar bir yoki ikki belgisi berilgan holda, shularga asoslanib javobini topishga, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va tafakkurlarini o'stirishga ta'sir etadi. Bu jihatdan topishmoqlar o'quvchilarning aniq va mavhum tasavvurlarini boyitishga ham xizmat qiladi.

Topishmoqlarning bir yo'nalishi sanoq sonlar bilan jumboqlangan bo'lib, hisoblashga qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish kabi amallarni tez va to'g'ri bajarish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan. Xalq orasida bunday topishmoqlar anchagina bo'lib, ular to'plansa o'quvchilarning matematikadan bilim olishlarida qiziqarli shakllarda foydalanilsa yaxshi natija berishi mumkin.

Boshlang'ich sinf darsliklariga etarlicha topishmoqlar kiritilgan deb hisoblaymiz. Ammo ularning ayrimlari keyingi sinflarda takrorlanadi. Bu mutlaqo mumkin bo'lmagan hol. Chunki o'quvchi javobini bilgan topishmoq uchun o'ylab, mulohaza yuritib o'tirmaydi. Shuning uchun ham topishmoqlarning turli variantlaridan foydalanilsa ma'qul bo'lar edi.

Topishmoqlar haqidagi yana bir xulosamiz shundan ibratki, eski davrlarda yaratilgan topishmoqlar ancha aqlli, o'ylab, hayotiy kuzatish va tajribalarga suyangan holda ijod qilingan. Hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim topishmoqlar juda soddaligi, qisman bachkanaligi bilan o'quvchilarning qiziqishlarini so'ndirib qo'yishi mumkinligi kuzatilmoqda.

Xalq aql-zakovati natijalari bo'lgan topishmoqlarga bunday yondashuv nazarimizda o'zini oqlamaydi. O'ylaymizki, topishmoqlarni boshlang'ich sinflarda o'qitilishi maxsus va jiddiy tadqiq etilsa ma'qul bo'lardi.

Maqollar

Maqol xalq og'zaki ijodining kuchli ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lgan, juda ixcham shaklga, ammo chuqur va keng mazmunli, hamma tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan janrlaridan biri hisoblanadi. Maqollarning uzoq tarixiy taraqqiyot ildizlari mavjudligi qaysi davrda yaratilgan bo'lsa, o'sha

davr muammolarini qamrab olinganligi, hozirgi kungacha yangidan-yangi namunalarning paydo bo'lishi, uning xalq orasida qadrlanishining belgisidir.

Maqollar o'quvchilarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishda ma'lum darajada hissa qo'shadi. O'quvchilarga ko'proq axloq-odobga doir mashqlar o'rgatilishi va uning mazmunini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalq maqollarida, axloq ham axloqiy tarbiya metodlariga oid materiallar markaziy o'rinni egallaydi. Odob va axloq mavzusidagi maqollar, asosan ikkinchi shaxs-tinglovchiga nisbatan o'git-nasixat yo'sinida aytilgan ibratli, mazmundor gaplardir. SHunday ekan, maqol o'z vaqtida, tinglovchining diqqat-e'tiborini tortgan holda, ta'sirchan shaklda aytilishi hamda ma'lum natija berishi zarur deb hisoblaymiz.

Maqollar xalqning turmush tarzini, ijtimoiy-siyosiy, moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, kasbiy-madaniy tajribalarini, hayotdagi kuzatishlari hamda ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarini ifodalovchi umumlashma va xulosalarining mevasidir.

Barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek xalq maqollarida ham xalq aql-zakovatining yorqin ifodasi aks etib turadi. Kishilarning e'tiborini tortadigan, hayotdagi har bir holatga bildirilgan munosabat ko'rinishida maqollar yaratilib kelingan. SHuning uchun ham o'zbek xalq maqollarining mavzu yo'nalishlari nihoyatda keng bo'lib, odob, axloq, mehnat, kasb-hunar, uyushqoqlik, tejamkorlik, mehr-oqibat, insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik, sadoqat, mehr-muhabbat, burch, vijdon, nomus, did, fahm-farosat va yana ko'plab ezguliklarni ifodalaydi.

YAna bir yo'nalishdagi maqollar hayotdagi nuqsonlarni, kamchiliklarni, nopoklik, nohaqlik, jabr-zulm, ochko'zlik, adolatsizlik, yalqovlik, omadsizlik va boshqa beda'vo illatlarni fosh etishga qaratilgan.

Maqollarning aksariyat qismi yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, bilim olishga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, g'ayrat-shijoatli bo'lishga va yuksak tarbiya natijalarini namoyon qilishga da'vat etadi.

“Fan” nashriyotida 1981 yilda chop etilgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plami mavzular yo‘nalishi bo‘yicha qirqta bilimdan iborat bo‘lib, shulardan o‘ttizdan ortig‘i ta’lim va tarbiyaga qaratilgandir. SHu tufayli bo‘lsa kerak, boshlang‘ich sinflarning darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan eng ko‘p uchraydigani maqollardir.

Maqollar darsliklarning hamma bo‘limlarida mavzuning mazmuniga mos holda berib borilgan. Ular o‘rganilgan bilimlarni dalillashda, ta’sirchanligini orttirishda, tegishli xulosalar chiqarishda yaxshi natija beradi. Nazariy va amaliy bilimlarning tarbiyaviy mohiyatini kuchaytiradi.

Birinchi sinf “O‘qish kitobi” (Toshkent “SHarq” nashriyoti, 2014 yil. T.G‘affarova, E.SHodmonov, G.Eshturdieva) darsligining 5-betidan mavzularga mos maqollar berilib borilgan. Misol uchun: “Vatani borning baxti bor”, “Ona yurtning oltin beshiging”, “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying samon bo‘lmas”, 17-sahifasida “Bulbul chamanni sevar, odam –vatanni” kabi maqollar o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Kitobning barcha bo‘limlarida juda ko‘p maqollar mazmunga mos holda berilgan. Darslikning so‘nggi qismi xalq og‘zaki ijodi, jumladan maqollar bilan yakunlangan. Ikkinchi va to‘rtinchi sinflarning “O‘qish kitoblari ham xuddi shu tartibda maqollar bilan tizimlangan. Ayrim maqollar barcha sinflarning darsliklarida takroran o‘qitishga tavsiya etilgan.

Uchinchi sinfning ”O‘qish kitobi” (Muhabbat Umarova, Xurshida Hamroqulova, Ra’no Tojiboeva, Toshkent “O‘qituvchi” 2014 y.) darsligi tarkibida jami 27 ta maqollar berilgan bo‘lib, bob va mavzularga mos hamda o‘quvchilarda ma’lum darajada qiziqish uyg‘otishi aniqlandi.

Maqollarni o‘qitish orqali yoshlarning milliy va umuminsoniy tarbiyasiga ta’sir etiladi. Maqollar o‘zlarida davr va xalq ruhini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Uzoq o‘tmishda yaratilgan maqollar bilan bir qatorda yangidan-yangi maqollar ham paydo bo‘lmoqda. Bu bilan xalq so‘z san’ati xazinasini va donishmandligini boyib boradi.

Afsona va rivoyatlar

Afsona va rivoyatlar real tarixiy shaxslarning hayoti, ko'rsatgan jasoratlari, aql-zakovati, boy ilmiy-ijodiy merosidan kelib chiqqan holda xalq tomonidan biroz bo'rttirib, yangicha jilva berib, ixcham, ammo ibratomuz voqea va hodisalar bayonidir. Afsona va rivoyatlar asosan xalq tomonidan yaratilsa ham ko'pchilik hollarda shoir va yozuvchilar, buyuk adiblar o'zlarining asarlarida ulardan ustalik bilan foydalanib kelganlar. O'zbek xalq afsona va rivoyatlari ko'plari hali odamlar yozish, o'qishni bilmagan davrlarda paydo bo'lgan. Ular og'izdan-og'izga o'tib, yosh avlodni tarbiyalashda samarali qo'llanib kelingan. Ma'lum bir qismi shoir va yozuvchilarning asarlarida muhrlangan. Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", YUsof xos Hojibning "Qutodg'u bilig", Kaykavusning "Qobusnoma", Ahmad YAssaviyning "Hikmatlar", Alisher Navoiyning "Hayratul Abror", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Abdulla Avloniyning "Turkuiy guliston yoxud axloq" kabi asarlarda katta mahorat bilan afsona va rivoyatlardan foydalanilgan.

Hozirgi vaqtda ham CHingiz Aytmatov, Abdulla Oripov, Barat Boyqobilov, Omon Matjon va yana bir qator adiblarning asarlarida afsona va rivoyatlardan iboratomuz foydalanganlarning guvohi bo'lamiz.

Afsona – forscha so'z bo'lib, hayoliyot, sehr-jodu, degan ma'nolarni anglatadi. Afsonalar hayotiy haqiqatni uydirma va karomatlarga bog'lab mo'jizakor mazmunni aks ettiruvchi kichik hajmdagi nasriy hikoyalar hisoblanadi. Afsona va rivoyatlarda tarixiy shaxs va voqealar bilan bir qatorda, odamlar xayolida yaratilgan qahramonlar haqida, jangu-jadallar va bunyodkorlik ishlari haqida, shu jarayonda ayrim kishilar tomonidan namoyish etilgan noyob fazilatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida bayon etadi. Ular tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, ijtimoiy hayot va turmush, jo'g'rofiy joylarning paydo bo'lishi hamda yo'qolishini aks ettiradi.

Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, axloq va odobning me'yoriga qaratilgan normalarni ifoda etib,

muayyan dalillar haqida ma'lumot beradi. So'nggi paytlarda Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab va boshqa xalq sevgan ulug' siymolar haqida yaratilgan rivoyatlar kitob holda chop ettirildi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida afsona va rivoyatlar keyingi nashrlarda etarli darajada berilgan. O'quvchilarni bilim egallashga, axloq-odobli bo'lishga, komillik sari intilishga da'vat etuvchi rivoyat va afsonalar har bir sinfda o'qitilmoqda. Mahoratli boshlag'ich sinf o'qituvchilari darsdan tashqarida ham rivoyat va afsonalarni o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqqanlar.

Tez aytish – xalq og'zaki ijodi namunasining bu turi ham quyi sinflar darsliklarida berib boriladi. Tez aytish kichik yoshli o'quvchilarda uchraydigan talaffuz nuqsonlarini yo'qotishga, aniq va ravon gapirishga o'rgatishga qaratilgandir. Mazmun jihatdan ilmiy dalillangan, hayotiy voqealarni aks ettirishni maqsad qilib qo'ymaydigan, ayrim undosh tovushlar bilan boshlanadigan so'zlarning takrorlanishidan gap tuzilib, tez buzilishi mumkin bo'lgan jumalardir. O'quvchi ko'p mashq qilish natijasida aniq so'zlaydigan, tez aytishning mazmunini buzmasdan talaffuz etishga o'rganadi. O'quvchi o'ziga, bilimlariga ishonchi ortadi. Har qanday sharoitda va holatda o'z fikrini adashmasdan tushunarli qilib bayon etishga o'rganadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida qisman latifalar, juda oz miqdorda dostonlardan parchalar ham uchraydi. Ularning ham o'ziga xos ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati bo'lib, keyingi boblarda izohlashga harakat qilamiz.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmunining salmoqli qismi sanalgan xalq og'zaki ijodining har bir turi ma'lum ta'limiy va tarbiyaviy vazifani hal etishga qaratilgandir. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etilishi o'qituvchining mahoratiga, bilimdonligi va fidoiyligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qiladigan, darsdan tashqarida eshitadigan, televidenie orqali namoyish etiladigan xalq og'zaki ijodi namunalari shubhasiz o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

1.2. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning holati

Dars o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy shakli ekanligi pedagogika fanida to'la ilmiy asoslangan. Ulug' chex pedagogi YAn Amos Komenskiy 1630 yillarda "Sinf – dars tizimi"ning nazariy asoslarini yaratgan. O'sha davridayoq maktab amaliyotida sinab ko'rilgan. Bu tizim butun dunyo bo'ylab yoyildi. Ammo uning keng ko'lamda tatbiq etilishi XX asrning boshlariga kelib amalga oshdi. CHunki, bu davrga kelib, dunyoning juda ko'p joylarida ta'lim tizimida demokratik tamoyillarga amal qilish, keskin o'zgarish va islohotlarning ro'yobga chiqishi sinf-dars tizimini faollashtirgan edi.

Olimlar, ilg'or o'qituvchilar darsning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ongi va faol o'zlashtirishlarini yo'lga qo'yish maqsadida darsning xilma-xil turlarini ishlab chiqdilar. Hozirgi davrga kelib har bir fan bo'yicha o'ziga xos dars turlari joriy etilgan. Ammo barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan, didaktik qonun-qoidalarga rioya etadigan dars turlariga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblanadi.

1. YAngi bilim berish dars turi:
2. Mustahkamlash va takrorlash dars turi.
3. Nazorat qilish dars turi.
4. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash dars turi.
5. Aralash dars turi.

Bu dars turlari deyarli barcha fanlar uchun umumiy bo'lib, fanning va mavzuning mazmuniga mos holda birortasidan foydalaniladi. Agar darsda yangi bilim berish asosiy maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, yangi bilim berish dars turi amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining butun e'tibori yangi mavzuni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Darsning tarkibiy qismlari uning turiga qarab belgilanadi. Har xil dars turlarining qismlari bir-biridan farq qiladi. SHunga qarab darsning reja-matni tayyorlanadi. Unda quyidagi holatlarga alohida e'tibor beriladi.

Darsning mavzusi, maqsadlari, tashkil etilishi, o'tgan va yangi mavzuni bog'lash, yangi mavzuning mazmuni, uni mustahkamlash shartlari, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish va darsga yakun yasash batafsil bayon etiladi.

Reja matnida o'quvchilarga beriladigan umumiy savollar, ayrim o'quvchilarga mo'ljallangan topshiriqlar alohida qayd etiladi. Darsning reja-matni qanchalik mukammal tayyorlansa, dars ham shunchalik mazmunli va qiziqarli o'tadi. So'nggi paytlarda dars zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda rejalashtirilmoqda. Bunda darsning reja-matni o'rniga loyihasi ishlab chiqiladi. Loyihaning reja-matnidan bir qancha afzalliku va farqli tomonlari mavjud.

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi materiallari dars jarayonida o'rganilganda o'quvchilarning aqliy va ma'naviy shakllanishiga ta'siri o'qituvchi tomonidan maxsus e'tiborga olinishi talab etiladi. Har bir fan, uning bo'limlarida, bo'limlar tarkibidagi alohida mavzular o'quvchi ongini ilmiy-nazariy bilimlar bilan boyitibgina qolmasdan, uning tarbiyasiga ta'siri ham mualliflar tomonidan mo'ljallagan bo'ladi. Buni o'qituvchi dars jarayonida hisobga olganda, tarbiyaviy maqsadga erishishga harakat qilganda, o'quvchining ma'naviy dunyosi boyib boradi, axloq normalariga amal qilish kundalik turmush tarziga aylanadi.

Turli fanlar o'quvchi ma'naviyatining o'ziga mos bo'lgan tomonlarini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish, odobnoma, atrofimizdagi olam fanlari tarkibiga xalq og'zaki ijodi namunalari kiritilgan. Ushbu materiallar o'quvchining dunyoqarashiga kuchli ta'sir etib, ongi va axloqini takomillashtiradi.

Ona tili darslarida o'quvchilar savodxonlik yuzasidan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan bir qatorda ma'naviy jihatdan ham ko'plab tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. Dostonlardan parchalar, xalq ertaklari, qo'shiqlar, she'rlar, maqollar, topishmoqlar har xil mashqlarning tarkibida berilib, o'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloqlilik, halollik, sofdillik va boshqa insoniy fazilatlarining shakllanishiga sabab bo'ladi.

O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy jihatdan tarbiyalanishiga ko‘p hissa qo‘shadigan fan hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslariga kiritilgan har bir mavzu o‘quvchilarning tarbiyalanishiga, ma’naviy jihatdan ulg‘ayishiga daxldor hisoblanadi. Keng qamrovli ta’limiy axborotlar qatorida kuchli tarbiyaviy mazmunni aks ettiradigan o‘quv materiallari o‘quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytiradi. Ilm olishga, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga, O‘zbekistonning yanada boy va farovon bo‘lishi uchun fidoyi inson bo‘lib etishishiga da’vat etadi.

Boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan fanlar ichida o‘qish fanini xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan desak sira ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘qish darslarida xalqimizning boy madaniyati jozibali san’ati, yuksak ma’rifati, ularga hissa qo‘shgan allomalarning ibratli hayot yo‘li, ilmiy va ijodiy izlanishlarining mahsuli bo‘lgan ma’naviy meroslarini bilib oladilar.

Vatanimizning moddiy va ma’naviy boyliklari haqidagi tushunchalarni egallab, shu aziz yurtga mehr-muhabbat tuyg‘usi ortadi. O‘qish darslarida milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar haqida ham tushuncha beriladi. Bu orqali milliy ruh, milliy axloq, milliy qiyofa shakllanadi. Faqat bunda o‘qituvchi, ota-onalar va jamoatchilik ibrat-namuna ko‘rsatishi kerak. Aks holda shiddat bilan kirib kelayotgan g‘ayri milliy axloqiy sifatlar, urf-odatlar ustunlik qilishi mumkin. Hozirgi davrda “Ommaviy madaniyat” deb nomlangan, mafkura va milliy g‘oyamizga yot bo‘lgan qarashlarning zararli ekanligi, ma’naviy qashshoqlikka yo‘liqtirishi muqarrarligini tushuntirish va dalillash zarur.

Boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan odobnoma darslari butun mazmun-mohiyati bilan o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim mazmuni tarkibidagi eng asosiy o‘zgarishlardan biri “Odobnoma” fanining o‘qitilishi bo‘ldi. Odobnoma o‘zbek xalqining yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishining sharti sifatida o‘qitilmoqda. Oldinlari turli fanlarning tarkibiga kiritilgan odob-axloqqa doir tushunchalar, qonun-qoidalar, xulq-atvor normalari, etuk insoniy fazilatlar, noyob his-tuyg‘ular, nozib ta’b va did, faxm-farosat, nafis zavq keltiruvchi sifatlar shu fanning tarkibiga

jamlangan. Bu fan o'qituvchisi shaxsiyatida ham yuqorida qayd etilgan barcha fazilatlar mujassam bo'lmog'i darkor, shuning uchun ham odobnoma darslarini eng mahoratli, bilimdon, nozik ta'b, yuksak didli o'qituvchilar o'qitadilar.

Qadimgi, ota-bobolarimizdan ma'naviy meros bo'lib qolgan "Avesto" kitobida odamlarda "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallar" uyg'un bo'lishi kerakligi haqida aytilgan.

Odobnoma darslari maktabni oila bilan, o'qituvchini ota-onalari bilan bog'laydigan ko'prik kabidir. Oilada o'rgatilgan insoniy fazilatlar maktabda bajarib ko'rsatilsa, maktabda o'rgatilganlari oilada bajariladi. Maktab va oila bolani hayotga, ijtimoiy muhitda ijobiy xislatlar bilan bir qatorda salbiy illatlar ham mavjud bo'ladi. Agar maktab va oila bir jon-bir tan bo'lib harakat qilsa, bola tashqi muhitdan ezgulikni oladi. Aksincha, maktab va oila o'rtasida o'zaro tushunmovchilik bo'lsa bolaning tarbiyasi izdan chiqadi.

Odobnoma darslari o'quvchini ham maktabda, ham oilada, ham jamoatchilik joylarida eng yaxshi xulq-atvor normalarini namoyon qilishga o'rgatadi. Chunki unda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Ular: ertak, maqol, topishmoq, afsona va rivoyatlar, tez aytish kabilardir.

Bundan tashqari, odobnomada buyuk allomalar ta'minoti va hayotiy namunalari, diniy qonun-qoidalar, el orasidagi tajribalar, rivoyat va afsonalardagi ideal sifatlar o'quvchilarga singdiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan matematika, atrofimizdagi olam, mehat, jismoniy tarbiya, rasm va musiqa darslarida ham o'quvchilarning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etadigan xalq og'zaki ijodi namunalari ko'plab uchraydi.

Matematika o'quvchilarni hisoblashga, to'rt amalni mukammal bajarishga, murakkab masalalarda berilgan mazmunni anglagan holda ularning echimini topishga o'rgatadi. Chunki bugungi kunda boshlang'ich sinf matematika darsliklarida berilayotgan masalalar o'zbekona mazmunda, mehnat, bilim, odobga yo'naltirilgan bo'lib, masala mazmuniga mos maqollardan foydalangan holda dars mazmunini yanada boyitish mumkin. Matematika bundan tashqari mantiqiy

fikrlashga, irodalarini mustahkamlashga o'rgatish orqali bola ongi va ruhiyatini rivojlantiradi. Bu o'z navbatida ma'naviy saviyaning ortishiga sabab bo'ladi.

Atrofimizdagi olam darslarida ham o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish nazarda tutilgan. Hozirgi davrda o'ta dolzarb bo'lgan ekologik tarbiya, vatanimizning tabiati, jonli mavjudodlar, yil fasllari, bayramlar va o'quvchi bilishi zarur bo'lgan turli ma'lumotlar o'qitilib, o'quvchi dunyoqarashini boyitishga hissa qo'shmoqda.

Mehnat darslari o'quvchilarda dastlabki ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan birga odamlar mehnati natijalaridan bahramand bo'lish, mehnat natijalarini qadrlash, mehnat ahliga hurmat hissini uyg'otishiga qaratilgan. Mehnat tufayli Vatanning obod va farovon bo'lishi, kishilarning baxtli-saodatli bo'lishini uqtiradi. Ayniqsa, o'qishning ham mehnat ekanligini anglatish, bu mehnatga jiddiy kirishishi zarurligi ma'lum qilinadi. Mehnat darslari orqali ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'quvchilar ongiga singdirib, ularni etuk insonlar bo'lib kamol topishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Barcha fanlar boshlang'ich sinf o'quvchisini ma'naviy dunyosi boy inson bo'lishiga, kelajakka katta umidlar bilan qarashga va ma'naviy merosimiz bo'lishi xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalanishiga ulkan hissa qo'shishi nazarda tutilgan deb hisoblashga haqlimiz.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodidan bundan ham samaraliroq foydalanish mumkin. U bizning o'zligimizning yorqin namoyishi ekan, o'qish, ona tili, odobnoma fanlaridan tashqari boshlang'ich sinfda o'qitiladigan barcha fanlar: rasm, musiqa, jismoniy tarbiya, atrofimizdagi olam fanlari tarkibiga ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan ko'proq kiritilsa yoshlar ongiga milliy ruhni singdirib, barkamol inson bo'lib etishishlariga qaratilgan harakatlarimiz bundanda samaraliroq bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashning mazmun va mohiyati

Yosh bolalar maktabga kelganiga qadar oilada tarbiyalanadi. Oilada bola tarbiyasi kattalarning ma'naviy saviyasi, ijobiy ibrat namunasi, bolaning etuk inson bo'lib ulg'ayishiga qaratilgan e'tibori va yana ko'plab boshqa ta'sirlarga bog'liq bo'ladi. Oilada farzand tarbiyalash haqida ulug' pedagoglar, buyuk allomalar, xalqimizning dono vakillari qimmatli nazariy va amaliy ta'limotlarni yaratganlar. Ularga suyanan va amal qilgan holda yosh bolani to'g'ri tarbiyalash imkoniyati mavjud. Ammo barcha oilalarda bu ta'limotlar mukammal o'rganilib, ularga amal qilgan holda bola tarbiyasiga yondashiladi deb bo'lmaydi.

Bola birinchi bor maktabga kelganida hamma uchun umumiy bo'lgan, bajarilishi zarur sanalgan qoidalarga duch keladi. Agar bu qoidalar oiladagi tarbiyadan keskin farq qilmasa maktab sharoitiga ko'nikishi oson va tez kechadi. Maktabga o'z xohishi va qiziqishi bilan qatnaydi. Ba'zan bola uchun maktabdagi ichki tartib-qoidalar murakkabdek, o'rganilmagan, cheklovlar asosida qurilgandek tuyuladi. Bola maktabga borgisi kelmay u o'qishdan soviydi.

Bunday hollarda o'qituvchi ota-onalar bilan maslahatlashgan holda oila va maktabdagi bolaga qo'yiladigan talablarni uyg'unlashtirishga erishishi zarur bo'ladi.

Bolaning dastlabki kamoloti xususiyatlari o'rganiladi. Ilmiy-pedagogik yondashuvni amalga oshirishga e'tibor qaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama tarbiyalanishida ularning kamolot xususiyatlarini bilish va hisobga olish alohida ahamiyatga ega.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida bir qancha omillar ta'sir etib, uni komillik sari etaklaydi. Komillikning eng asosiy belgilari sifatida aqliy, axloqiy, ruhiy va jismoniy ulg'ayish amalga oshadi. Ularning ta'siri ostida ma'naviy barkamollik hosil bo'ladi.

Bolalarga tarbiya berishning eng asosiy shartlaridan biri ularning ma'naviy barkamollikka erishishidir. Bolaning ma'naviy barkamolligi uning aqliy

qobiliyatlarining barqarorlashuvi, jismoniy jihatdan sogʻlom boʻlishi kabi yoʻnalishlarni qamrab oladi.

Bu yoʻnalishlarning har biri inson maʼnaviy qiyofasida oʻziga xos oʻringa ega. Olimlarning taʼkidlashlaricha maʼnaviy shakllanishda aqliy va axloqiy tarbiyaning roli beqiyosdir. Aqliy tarbiya orqali nafaqat oʻqish va yozishga, balki, tabiat va jamiyatda sodir boʻladigan voqea-hodisalarning mohiyatini anglashga, ularni oʻzlarining maqsadlariga yoʻnaltirishga erishadi. Aqliy tarbiyaning natijasi sifatida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va sanʼat rivojlanadi. Ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalari takomillashadi. SHuning uchun ham aqliy tarbiyani maʼnaviy shakllanishning boy mezonlaridan biri deb qaraladi. Axloqiy tarbiya oʻquvchilarning maʼnaviy qiyofasini, tashqi koʻrinishidan tortib, xulq-atvorigacha, xatti-harakati, munosabati, madaniyati bilan birga, etuk insoniy fazilat egalari boʻlishlarini taminlaydi. Boshlanggʻich sinf oʻquvchilarida axloqiy sifatlar atrof-muhitlariga ongli munosabat hosil boʻlishi bilan shakllanib boradi.

Bolaga kattalar qanday munosabatda boʻlsalar unga mos holda odob-axloq normalari tarkib topib va shakllanib boradi.

Axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari sifatida burch, vijdon, nomus kabi maʼnaviyatning asosiy tushunchalari va asosini tashkil etuvchi fazilatlari roʻyobga chiqadi va bolaning kundalik hayotida namoyon boʻladi.

Axloqiy tarbiya kishilarning Vatanga, odamlarga, tabiatga va jamiyatga boʻlgan munosabatlarini tartibga soladi. Kundalik turmush tarzida amalga oshadi.

Axloq – insonlarga, ularning maʼnaviy qiyofasiga xos boʻlgan fazilat va sifatlar majmuidir.

“Axloq kishilarning bir-biriga, oilaga, jamiyatga boʻlgan munosabatlaridan namoyon boʻladigan xatti-harakatlari, xulq-atvori, odoblari majmui”¹, deb hisoblangan. Axloq haqidagi fikrlar davom ettirilib, quyidagicha taʼrif berilgan.

“Axloq (arabcha xulqining koʻpligi)-ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy

¹ Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. -T.: “Fan va texnologiya” 2008. - 41 b.

hayotidagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatda bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi”.¹

YUqoridagi ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, axloq keng qamrovli bir kishining shaxsiy sifatlaridan tortib butun qarashlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Axloq vatanparvarlikni, ongli intizomni o‘z tarkibida mujassamlashtiradi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda axloq keng va teran ma’nolarni ifodalaydi. Keng ma’noda axloq ijtimoiy voqea, hodisalarni, jamiyat taraqqiyoti yoki inqirozni aks ettirsa, tor ma’noda alohida olingan kishining xulq-atvorini, o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Axloqning umumbashariy qiymatga ega bo‘lgan burj, vijdon, nomus kabi tushunchalari bor va ular yuzlab boshqa tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Axloq

Nafsni tiya bilish		
Burch – ado etilishi zarur bo‘lgan sifatlar.	Vijdon – shaxsning ma’naviy mas’uliyatini his etish	Nomus – kishining o‘zini va o‘zgalarni qadrlashi
Vatanni sevish ota-onaga hurmat, insonparvarlik, mehr- shavqat	Adolat, poklik, mardlik, halollik, bag‘rikenglik, fidoyilik, hushfe’llik	Oriyat, or uyalish, sha’n, faxr, iftixor, iffat, vafo

Dotsent H.Abdukarimov bu tushunchalarni davom ettirib, shogirdlari bilan birgalikda besh yuzdan ortig‘ini aniqlagan. U kishining ta’kidlashicha ayrim tushunchalar ham burch, ham vijdon, ham nomus tarkibida o‘ziga xos ma’noga ega ekanligini aniqlagan. [.....].

Axloqning ma’lum darajada tug‘ma asosi bordek tuyuladi. Lekin pedagogika fanida axloq tarbiyalanadigan ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradigan sifat deb qaraladi. SHuning uchun ham shaxsning barkamol bo‘lib voyaga etishida axloqiy tarbiya eng dolzarb pedagogik muammo bo‘lib kelgan va mudom shunday bo‘lib qoladi, degan xulosa chiqarish nazarimizda xato bo‘lmaydi.

¹ Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. -T.: “Fan va texnologiya” 2008. - 42 b.

YOshlarga axloqiy tarbiya berish dars jarayonida, darsdan tashqarida, oilada, jamoatchilik joylarida hamisha muntazam berib boriladi. Bunga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

O‘quvchi-yoshlarning vatanparvarlik hissi eng oliy tuyg‘ulardan biri bo‘lib, bolada birinchi olgan nafasi, ona suti va allasi, quvonch va tashvishlari, orzu-havaslari orqali tarkib topib boshlaydi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga kattalar tomonidan bugungi kun quvonchini idrok etish jarayonida ertaning bugundanda yaxshi bo‘lishiga ishonishlariga o‘rgatish lozim. Bugungi hur, ozod, obod kunlarni yaratilishiga sababchi bo‘lganlarga qalbimda minnatdorchilik tuyg‘usi barq uradi. SHular natijasida o‘tmishni, tarixni o‘rganishga qiziqish hosil bo‘ladi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek “Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”¹.

Insonparvarlik ota-bobolarimizdan qolgan noyob ma’naviy meros hisoblanib, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallangan, hayratlanarlik darajada takomilga etgan.

O‘zbek oilasining har bir vakili nafaqat tug‘ushganlariga, do‘st-birodarlariga, tanishlariga, xatto: “etti yot begonalarga” ham samimiy munosabatda bo‘ladi.

O‘zbekistonda yuzlab millat vakillarining inoq-totuv yashashlari buning yorqin misolidir. Bir oilada bir necha millat vakillarining qon-qarindosh bo‘lib yashayotgani sir emas. Bu xalqimizning baynalminalchi-ligini belgisidir. Xalqlar va millatlar o‘rtasidagi do‘stlik buyuk bobokolonlarimizning asarlarida takror va takror bayon etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga odob qoidalarini o‘rgatish, kelajakda insonlar orasida, hayotda o‘z o‘rnini topish uchun eng zarur shart ekanligini anglatish lozim. SHuning uchun ham xalqimiz: “Odobli bola elga manzur”, “Odob kishining zebu-ziynati”, - deb bejizga aytmaganlar.

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият Т.1994 й.

Odob inson uchun zarur fazilat ekanligini boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklardagi ertaklar rivoyat va afsonalardagi ijobiy va salbiy obrazlarni o'zaro taqqoslab, o'z fikri va aql-zakovati, qobiliyati bilan his qiladi, uning hayotiy zarurat ekanligini ich-ichidan tushunib etadi.

O'quvchilar odob qoidalarini bajarishni kimdandir qo'rqqanidan, uyalganidan emas, balki hayotiy ehtiyoj va turmush tarzi sifatida qarab unga doim rioya qilish zarurligini anglashlari lozim.

Odob qoidalarini yoshlikdan o'rganib, unga qat'iy rioya qilgan bolalar va yoshlar keyinchalik o'z hayoti yo'llarini shu mash'al yordamida yorug' quradilar, yorqin kelajak sari adashmasdan boradilar. Bu haqda bobomiz A.Navoiy o'zlarining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deganlar:

"Odob – kichik yoshlarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod baxramand bo'ladilar. Odob – ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. YOshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir.

Odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi".¹

Boshlang'ich sinf o'quvchilari odob normalarini ko'proq ota-ona va muallimlaridan oladilar.

Muallimlarining, ota-onalarining va o'zidan kattalarning odob to'g'risidagi nasihatlarini jon dildan qabul qiluvchi, ulug'larning yaxshi fazilatlaridan ibrat oluvchi bola, o'smir albatta odobli bo'lib ulg'ayadi.

Bizga ma'lumki boshlang'ich sinflarda "Odobnoma" fani o'qitiladi. Bu fan o'quvchilarni milliy va umuminsoniy ruhda tarbiyalanishiga, unda o'quvchilar axloqiy tarbiyani hikoya, she'rlar, maqollar, rivoyatlar, hadislar orqali yanada boyitib, rivojlantirib boriladi. Masalan, 3-sinf "Odobnoma" darsligida "Hadisi marif-odob-axloq manbayi" bo'lishida odobga oid quyidagi hadislar keltirilgan.

"Tangri saxiydir, saxiylarni do'st tutadi. Axloqi oddiy kishilarni yoqtirib, axloqsizlarni yoqtirmaydi".

¹ А.Навоий. "Махбул-ул қулуб" Т.Ғ.Ғулом нашриёти Т. 1983, 48 б.

“Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi axloqdir”, “Vatanni sevmok iymondandir” kabi juda ko‘plab axloqqa ijobiy ta’sir etuvchi hadis namunalari mavjud [.....].

Xalqimiz intizomli, sabr-qanoatli, ochiq ko‘ngil, bag‘ri keng, mehnatsevar, fidoiy, mard, jasur va botir farzandlarni tarbiyalab, voyaga etkazgan. SHu bilan jahon xalqlari ma’naviy dunyosining boyishiga salmoqli hissa qo‘shgan deb aytsak aslo xato qilmagan bo‘lamiz.

Axloqiy tarbiya haqida so‘z yuritganda dinning ta’sirini, salmog‘ini ta’kidlash o‘rinlidir. Umumiy ta’lim maktablarimiz dunyoviy xarakterga ega bo‘lsada, yoshlarning tarbiyasiga diniy ta’limotlar ta’sir etmasdan qolmaydi. Ota ona jamiyatchilik, bola yashayotgan ijtimoiy muhitning ta’siri ostida diniy tushunchalar egallab boriladi. Ularga kundalik hayot tarzida amal qilinadi.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang‘ich sinflarda ta’lim mazmunining salmoqli qismi sanalgan xalq og‘zaki ijodining har bir turi ma’lum ta’limiy va tarbiyaviy vazifani hal etishga qaratilgandir.

Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishi o‘qituvchining mahoratiga, bilimdonligi va fidoiyligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI

NAMUNALARI ORQALI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI TIZIMI

2.1. Ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilar axloqiy tarbiyasini kuchaytirish yo'llari

Maktabda o'quvchilarga o'rgatishga mo'ljallangan har bir mavzu ma'lum ta'lim-tarbiyaviy qiymatga ega bo'lishi shart. Chunki o'quvchining aqliy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy kamoloti ularga o'qitiladigan fanlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ongining shakllanganlik darajasi, bilim saviyasi, hayotiy tajribalariga uyg'un holda tanlanadi.

Bola maktabga borganicha oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida ko'proq xalq og'zaki ijodi namunalari ta'sirida tarbiyalanib boradi.

Maktabda bu ta'sir davom ettirilishi yaxshi natija beradi. Birinchidan, o'zlariga ma'lum yaqin va yoqimli bo'lgan bilimlarni egallashda davom etsalar, ikkinchidan, ilmiy-nazariy bilimlarni olish uchun ularning aqliy salohiyatlarini ko'niktirib boshlaydi. Bir turmush va fikrlash tarzidan, boshqasiga o'tishni qiyinchiliksiz amalga oshirishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim olishi va insoniy fazilatlarini egallashlariga turli xalq og'zaki ijodi namunalari turlicha ta'sir etadi. Yuqorida qayd etilganidek, boshlang'ich sinflarda maqollar, hikmatli so'zlar, rivoyatlar, afsonalar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlardan parchalar va tez aytishlar o'qitilib boriladi. Quyida shularning o'quvchilar shaxsi shakllanishiga ta'siri haqida fikr yuritamiz. Chunki ularning har biri o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Ma'lumki inson barkamolligi uning ma'naviy qadriyatlar haqidagi xalq og'zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarida doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadir.

O'zbek xalq og'zaki ijodi materiallarida axloq-odobga oidlari juda ko'p bo'lib, ular insonning ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Ijtimoiy va maishiy

hayotning turli sohalari qamrab olingan, xalqning asrlar davomida to'plangan, tildan-tilga, dildan-dilga ko'chib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalarida insoniy qadriyatlar ibratli satrlarda ifodalangan bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganishga mo'ljallangan xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ongi va tushunchalarining rivojlanish darajalariga mosligi, ularda hosil bo'lib boshlagan axloqiy sifatlarning mohiyatlariga uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

SHuni ta'kidlash lozimki, og'zaki ijod namunalari hamma yosh davrlari uchun qo'llanilaveradi. E'tiborlisi shundaki, ancha murakkab mohiyatga ega bo'lgan tushuncha va iboralarni bola dilidan his etadi. Undagi mazmunga rioya qilgan holda o'z xatti-harakatlarini o'zgartiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, hikmatli so'zlar, dostonlardan parchalar hamda qo'shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko'proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb e'tirof etiladi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta'sirini inkor etish mumkin emas. Topishmoqqa javob izlab topishda bolaning dunyoqarashini kengayishi, irodaviy sifatlari, o'ziga bo'lgan ishonch, hozirjavoblik kabi fazilatlar shakllanib boradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o'z ichiga olgan, kishilarni axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va sahovatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ'ib qilingan.

Maqollar o'quvchilarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishda ma'lum darajada hissa qo'shadi. O'quvchilarga ko'proq axloq-odobga doir maqollar o'rgatilishi va ularning mazmuni ochib berilishi zarur.

O'zbek xalq maqollarida, axloq va axloqiy tarbiya metodlariga oid materiallar markaziy o'rinni egallaydi. Odob va axloq mavzusidagi maqollar, asosan ikkinchi shaxs-tinglovchiga nisbatan o'git-nasihat yo'sinida aytilgan mazmundor so'zlardir. SHunday ekan, ularni birinchi navbatda, tinglovchi – bolalarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosida qilingan murojat deb tushunish mumkin.

Bolalarning odob-axloqiga nisbatan aytilgan maqollarda: “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l!” , “Tozalik – sog‘lik garovi”, “Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l!” , “Er haydasang – kuz hayda, kuz haydamasang – yuz hayda”, “Ko‘p ko‘rgan, ko‘p bilar”, “Mehnat baxt keltirar”, “Bahorgi harakat – kuzgi barakat”, “Ona yurti – oltin beshiging”, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” kabilarda yoshlarni kishilarning ijobiy ma’naviy fazilati – otashin vatanparvarlik, mehmuruvvatlik, milliy iftixor, chuqur insonparvarlik, mehnatga muhabbat, hamkorlik, o‘rtoqlik, do‘stlik, inoqlik kabi olijanob axloqiy sifatlarni aks ettiradi hamda yoshlarni bunday fazilatlarga odatlantirish metod va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Bu maqollar inson fazilatining barcha qirralarini qamrab olganligi bilan yoshlarning umumiy tarbiyasini kuchaytiradi. Ba’zan tarbiyaning bir yo‘nalishi haqidagi maqollardan foydalaniladi:

- Masalan:
- 1) Mehnat ikki qo‘zdan aziz.
 - 2) Oltin o‘tda toblanar, odam mehnatda.
 - 3) Bahor suvini yomg‘ir toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.
 - 4) Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
Odam mehnati bilan.

Ushbu maqollarda mehnatning inson hayotidagi o‘rni, qadr-qimmat keltirishi, cheksiz baxt-saodat manbai ekanligi, hayotiy ehtiyoj bo‘lishi kerakligi uqtiriladi.

Tarbiyaning usullari va uni egallash yo‘llarini ifodalovchi maqollar ham ko‘p uchraydi.

- Masalan:
- 1) Bir qilgan – madad,
Ikki qilgan odat.
 - 2) Ishni omadi – o‘z vaqti.
 - 3) Ola ekkan – oz olar,
Rosa ekkan – soz olar.
 - 4) Ishning o‘zini bilguncha,
Ko‘zini bil.
 - 5) Seni ish engmasin,

Sen ishni eng.

6) Dehqon bo'lsang, shudgor qil,

Mullo bo'lsang, takror qil.

Bu singari maqollarda yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalari hosil bo'lishi, shaxsiy va kasbiy sifatlarning tarkib topishi, irodali sabr-qanoatli bo'lish, tadbirkor va ishbilarmon, turli xil hayotiy muammolarga shay turishga, ijobiy hislatlarni namoyon qilishga davat etiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining ertak janri ham xalqimiz orasida eng ko'p yoyilgan va muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan janrdir.

Boshqa xalqlardagi kabi o'zbek oilasida ham ertak (cho'pchak) aytib bermay bola o'stirgan ota-ona va kattalarni, yoki ertak eshitmay ulg'aygan yoshlarni tasavvur qilish qiyin. Buni tarixida o'tgan ilm-fan vakillari shoir va adiblar jamoat arboblari e'tirof etganlar. Ularning shaxs sifatida shakllanishlarida ertak qahramonlari ijobiy ta'sir ko'rsatgani ma'lum qilinadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ertaklar ham folklor asarlari sifatida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. SHunga ko'ra, ertaklarni qiziqib o'qimaydigan bolalar umuman bo'lmasa kerak.

Zero, ertaklar bolalar hayotida alohida o'rin tutadi. Ular o'quvchilarga samarali tarbiyaviy ta'sir qilib, ma'naviy va axloqiy tushunchalarga katta yordam ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilgan xalq ertaklari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ulardan darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda unumli foydalanish mumkin.

Ular o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, botirlik, mardlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik singari axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklarning mazmuni va asosiy g'oyasini yaxshiroq idrok etib, puxtaroq tushunib olishlari uchun og'zaki nutq o'stirishlariga doir rasmlar chizishni tavsiya etish, ularda tasavvur va tafakkur, xotirani o'stirish, tasviriy san'atga bo'lgan qiziquvchanlikni oshirish g'oyat muhimdir. Bolalar ertak qahramonlarining qiyofalarini mazmunga mos holda aks ettirishni, ayniqsa

hayvonlar, parrandalar, hashoratlarni katta qiziqish bilan tasvirlashni yoqtiradilar. Ularning chizgan rasmlarida anglab etgan hayot haqiqatlari o'z ifodasini topadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertaklarga keng o'rin berilgan. "Tansixatlik-tuman boylik", "Uch ugil", "Uch urtok", "Eng yaxshi sovg'a", "Akilli bola", "Kenja ugil", "Xunarsiz kishi ulimga yaqin", "Ochkuz boy", "Tulki bilan turna", "Kuzacha bilan tulki", "Donishmand yigit", "Halollik", "Ahillik - ulug' baxt", Davlat, "Ilm afzal" ertaklari shular jumlasidandir.

Tabiiyki, o'quvchilar bunday asarlarni sevib tinglaydilar va o'qiydilar. O'qituvchi bergan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilarni tafakkuri, fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda so'z boyligi ortib boradi. Ertaklarning o'z olami bo'lib, o'quvchilar uni o'rganishda o'zlarining ma'naviy olamlarini boyitadilar.

Ertaklar olamiga kishi bolalik chog'laridayoq sayohat etadi, u dastlab hayvonlar haqidagi ertaklarni eshitib, ulardan ulkan zavq va ibrat oladilar, keyinroq har xil toifa va harakterdagi kishilar dunyosi: aqlli va ahmoq, saxiy va qizg'anchiq, zolim va odil, mehnatsevar va yolqov, bilimdon va johil kishilar obrazi bilan tanishadilar.

Kishi kamolotga etgan sari eshitadigan ertaklarining turlari ham o'zgarib boradi. Og'ir mehnatdan keyin hordiq chiqarish chog'larida kishilar olam ajoyibotlari, ruhni engillashtiruvchi fantaziya bilan bezagan ertaklarni miriqib tinglashga ehtiyoj seziladi. Kelajak va go'zal hayot haqidagi orzu-umidlari xalqning o'z aql-zakovati, istaklari bilan yo'g'rilgan ertaklarda to'la ifodasini topgan. Ayniqsa uzoq o'tmishda yaratilgan ertaklar kishilarning orzu-havaslarini va ehtiyojlarini ham aks ettirgan. Ertaklarda kambag'al, mehnatkash xalqning og'ir hayot sharoitlari, qiyinchiliklari real, haqqoniy tasvirlanadi. SHu bilan birga xalq o'z fantaziyasini ishga solib, boy, johil rahbar, amaldorlarni kambag'al-qashshoqlar o'rniga o'tkazadi, ularni qiyinchilik, muxtojlikka duchor etib, qattiq jazolaydi, o'zining sevimli kishilarini esa shox, vazir, amaldor darajasiga ko'tarib mukofotlaydi, ulug'laydi.

Demak, bunday o‘rinlarda mehnat ahli o‘z orzu-istaklarini fantaziya yo‘li bilan ko‘rsatadi, xayolan amalga oshiradi, ularga idealdagi turmush tarzini ravo ko‘radi.

Mehnat qilgan, mehnatni sevgan kishi ertaklarda taqdir lanadi. CHunki insonni inson qilgan mehnatidir. “Uch og‘ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Egri va to‘g‘ri”, “Dunyoda yo‘q hunar”, “Ota vasiyati” kabi ertaklarda xalqimizning asriy orzu-istaklari, umid va intilishlari ertak qahramonlarining mehnatga, ezgulikka munosabatlari zaminida ifodalangan.

O‘zbek maishiy ertaklari orasida pand-nasihat, tarbiyaviy xarakterdagi, amaldor, boy, ruhoniylarni tanqid etuvchi satirik ruhdagi, hazil-mutoyiba asosiga qurilgan yumoristik xususiyatdagi ertaklar ham mavjuddir. Pand-nasihat, pedagogik xarakterdagi ertaklarda ota-bobolarimizning asrlar davomida yaratgan hayot tajribalarida sinalgan fikrlarning xulosasi lo‘nda qilib ifoda etilgan. Ularda mehnatkash xalqning pedagogik qarashlari mujassamlashgan. Mehnat ahli o‘z bolalarini savodli qilish, o‘qitishga qurblari etmaganligi sababli, ularni chin inson qilib voyaga etkazish, mehnatni sevish va unga qiziqish bilan qarash, kattalarni hurmat etish, hunar o‘rganish, komil inson bo‘lish, kishilarga doim yordam berish kabi qator ezgu niyatlarini o‘z ertaklari orqali yoshlarga etkazganlar.

CHunonchi maishiy ertaklar orasida “Botir mergan va chakimchi”, “Aka-uka”, “Ziyrak uch yigit” kabilarni eslash mumkin.

“Aka-uka” ertagida aka va ukaning bir-biriga mehribonligi, g‘amxo‘rligi ifodalangan. Aka o‘z bug‘doyidan ukaga, uka esa akaga berishni xohlaydi. CHunki har biri ikkinchisining qiynalmasligini, tinchligini istaydi. Bu ertak juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, aka-ukalarni do‘st, ahil bo‘lishga chaqiradi, kichik jamoa-oiladagi birdamlik, do‘stlikni tasvirlaydi, yoshlarni shunday bo‘lishga undaydi.

“It bilan tulki” ertagida tulkining ayyorligi, itning esa ziyrakligi ifodalangan. Bu ertak orqali bolalar aldoqchi, yomon niyatli insonlar baribir bir kun ta‘zirini eyishi, ya‘ni tulki itni aldab, tovuqxonaga tushmoqchi bo‘lganida it uni tutib, qorovulga topshirishi tasvirlangan. YOmonlik jazosiz qolmasligi ertak

mazmunidan bolalar ongiga etib boradi. YOmonlikdan nafratlanadigan, yaxshilikka intilib yashashga da'vat etiladi.

“Ochkuz boy” ertagida boy uz ochkuzligi tufayli kiyin axvolda kolganligi baen etiladi. Ochko'zlik xech qachon foyda keltirmasligini, aksincha zararli ekanligini ochkuz boy misolida tasvirlangan. Ayniqsa aka-uka, opa-singilar, sinfdoshlar bir-birlariga mehribon, g'amxo'r bo'lishlari, bor narsalarini birga baham ko'rishga yo'naltiradi. Bolalar bundan tegishli xulosa chiqaradilar. Ular ota-onasining, o'qituvchisining nasihatlarini quloqqa olib, ularga amal qilsalar, hayotda pand emaydilar. Sabrli, toqatli, ahil, inoq, bo'lishni o'rganadilar.

O'zbek xalq, ertaklari ichida salmoqli o'rinni egalovchi, keng tarqalgan qismi sehrli ertaklar hisoblanadi. Sehrli ertaklar o'zining bir qator xususiyatlari bilan mijoziy va maishiy ertaklardan farq qiladi. Dunyoning ko'pchilik xalqlarida bo'lgani kabi o'zbek sehrli ertaklari ham hayot voqealarini fantastik bayonlar bilan to'lib-toshgan uydirmalar orqali o'ziga xos syujet va kopozitsion birlikda, an'anaviy ifodalar vositasida optimistik yakunlar yordamida ifoda etadi. Sehrli ertaklarning o'ziga xos jozibali belgilari mavjuddir.

Ertaklardagi sehrli, fantastik bayon ajoyib, dabdabali, hashamatli saroylarni, ko'kalamzor, ko'zni qamashtiruvchi o'tloq va mevazor bog'larni jonli, jozibali qilib tasvirlashda ham namoyon bo'ladi.

Demak, ko'p qirrali va rang-barang o'zbek xalq ertaklari xalqimiz tarixidagi muhim voqea va hodisalarni o'ziga xos shaklda uydirma va fantastikaga boy qilib ifoda etgan. Ularning ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik qimmati buyukdir.

Xalq qo'shiqlarining o'rganilishi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuksak did va nafis his-tuyg'ularning tarkib topishiga ta'sir etadi.

X asrda yashab, ijod etgan Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri va tibbiyotning asoschilaridan biri Abu Ali Ibn Sino dastlabki qo'shiq namunasi sifatida “Ona allasi” bola tarbiyasining boshlanishi ekanligini ta'kidlagan edi: “Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri – bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi – uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan

musiqqa allalashdir. SHu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolalarning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”¹.

Demak, umuman qo‘shiq va uning bir turi “alla”ning o‘zi bola tarbiyasida, xususan nafosat tarbiyasida bebaho qimmatga ega. Qo‘shiqlarda faqat nafosat tarbiyasiga oid ta’sir kuchli bo‘libgina qolmasdan, balki shu bilan birga aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy tarbiyaga oid qarashlar, ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan usul va vositalar ham katta o‘rin egallaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan qo‘shiqlarning aksariyat ko‘plari yangi davr qo‘shiqlari bo‘lib, Ona-Vatanni, xalqni, baxtli bolalik va farovon turmushni madh etishga qaratilgan.

O‘tmish davr qo‘shiqlarining bolalarga mos bo‘lganlarini tanlash, darsliklarga kiritish, ularning mazmunini chin dildan his qilgan holda kuylash va tinglashga o‘rgatish hozirgi davr talabi hisoblanadi.

Tarixiy qo‘shiqlardagi mungli ohang, bugungi hayotning qadriga etish, undan zavqlanish va yanada fayzliroq qilish uchun intilishni hosil etishi zarur.

Bu maqsadga erishish uchun sinfda, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi yaxshi natija beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy shakllari tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Eng avvalo bolalarning aqliy tarbiyasi yoshiga mos holda takomillashib borishi, fan asoslarining dastlabki (sodda) ma’lumotlarini egallashlarini ta’minlash asosiy vazifa sanaladi. Bu vazifani hal etishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining barcha turlari barobar o‘qitiladi. Ammo ularning orasida topishmoqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Topishmoqlar o‘quvchini o‘ylashga, izlanishga o‘zida bor bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga suyangan holda yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Topishmoqlarda yashiringan ma’no bo‘ladi. Uning javobini izlab topish uchun ayrim belgi xususiyatlari ma’lum qilinadi. SHu xususiyatlardan kelib chiqqan holda topishmoqlarning javobi izlanadi. Ba’zan javob izlovchi kishi topishmoq aytgan kishidan yana oydinlik kiritishini so‘raydi. Masalan: “joni

¹ Абу Али Ибн Сино. “Тиб қонунлари”, 3 жилдлик, 1 жилд, Т., 1994.

bormi, yo‘qmi?”, “qaerlarda uchraydi?”, “kattami, kichikmi?” va hokazo. Topishmoq aytuvchi, ma’qul topsa bu savollarga javob beradi. Xalq orasida mavjud bo‘lgan udumlardan biri, topishmoqlarning javobi topilmaganida topishmoq aytuvchi javob beruvchidan “shahar” berishini so‘raydi. “SHahar berish” javobni topa olmaganlarning iqrori hisoblanadi. O‘zbekistonning turli hududlarida “shahar” olgan uni berishga rozi bo‘lganiga qarab, uyaltiradigan, kamsitadigan so‘zlarni aytadi. Har joyniki o‘ziga xos mazmunga ega. Olima Z.Husainova “O‘zbek topishmoqlari” nomli kitobida bir necha turini bayon qilib bergan. SHulardan birini e’tiboringizga havola etamiz:

Jumog‘imni juttirdim,
Oq eshakka mindirdim,
Olti tog‘dan oshirib,
Ota-enangdan jashirib,
Olis jurtqa sottirdim,
Sen topmasang men topay,
Og‘zinga tapini yopay. (SHahrisabz)¹

Boshqa variantlarda yanada uyatliroq va kamsitilish gaplari bayon qilingan. SHuning uchun ham bolalar uyalib qolmasligi maqsadida topishmoqlarni yaxshilab o‘rganganlar. Javobini xotiralarida saqlaganlar. YAngi topishmoqlarni tafakkur qilish yo‘li bilan javobni topishga harakat qilganlar. Mana shuning o‘zi bolalarda g‘urur, fahm-farosat yuksak didni tarbiyalashga hissa qo‘shgan.

Topishmoqlarni eng qadimgi, eski va yangi turlarga ajratish mumkin. Eng qadimgi topishmoqlar ming yillar avval yaratilgan. Avloddan avlodga o‘tib keladi. Ularning javobini topish biroz murakkabroqdir. Eski topishmoqlar uncha uzoq bo‘lmagan o‘tmishda yaratilgan. Masalan: poezd, (samolyot) havo kema, radio, televidenie va boshqalar haqidagi topishmoqlar. Ularning paydo bo‘lganiga uzog‘i bilan yuz yil to‘lgan, yoki to‘lmagan.

¹ Хусайнова З. “Ўзбек топишмоқлари”. Т., “Фан”, 1966, 17 бет.

Yangi topishmoqlar bir necha o'n yillar orasida paydo bo'lgan va javoblari o'quvchilar uchun ancha oson topishlariga mo'ljallanganligi sezilib turadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida yangi topishmoqlar ko'proq o'rin egallagan.

Boshlang'ich sinf darsliklariga xalq dostonlaridan parchalar kiritilgan bo'lib, ularning tarbiyaviy ta'siri ancha keng qamrovlidir.

3-sinf o'qish kitobida "Alpomish" dostonidan parcha berilgan. Parchalarning o'zida o'quvchilarga aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, jismoniy tarbiyalar haqida ma'lumotlar berilgan. Agar dostonning mazmuni to'la o'rganilsa, komil insonda bo'ladigan barcha sifatlar o'quvchilarga bayon etilgan bo'lar edi. SHuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga dostonlarni o'rgatish kengaytirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. CHunki dostonlarda qahramonlarning yoshligi batafsil ifodalangan bo'ladi. Qanday qilib etuk shaxsga aylanganligi izchil tasvirlanadi. Dostonlarda bolalar hayoti chuqur tahlil etiladi. O'quvchilar o'zlariga ibratli lavhalarni topadilar va uni bilish bilan cheklanmasdan, hayotlarida tatbiq etishga harakat qiladilar.

Xalq dostonlarida odamlar orasida ijobiy va salbiy munosabatlar yorqin bo'yoqlarda aks ettiriladi. SHuning bilan birga, tabiatga, atrof-muhitga, ekologiyaga e'tibor kuchli qaratiladi. Odamlarning hayvonlarga, o'simlik va daraxtlarga, suvga va havoga bo'lgan munosabatlari eng yuqori darajada ifodalanadi. "Alpomish", "Go'r o'g'li" dostonlarida qahramonlarning otga bo'lgan munosabatlari ibratlidir. YOshlar haqiqiy do'stlik va o'zaro yordam namunalarini his etadilar.

Xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga kuchli ta'sir ko'rsatishi haqida munosabat bildirgan edik. Barcha turdagi og'zaki ijod materiallari o'quvchilarning jismoniy ulg'ayishlari, sog'lom, baquvvat, chaqqon, kuchli bo'lishlarini imkon darajasida ta'minlay oladi. O'g'il bolalar va qizlarning jismoniy ulg'ayishlari o'ziga xos holda amalga oshirilishi nozik iboralarda ifodalangan.

Nafosat tarbiyasi berishga ham boshlang'ich sinflarda alohida e'tibor qaratiladi. Eng avvalo go'zal xulqli bo'lishi, yuksak did va farosatni o'stirishga

harakat qilinadi. Maqollar, etaklar, hikmatli soʻzlar orqali nafis his-tuygʻular shakllantiriladi. Boshlangʻich sinf oʻqish kitoblariga kiritilgan quyidagi maqollar oʻquvchilarning nafosat tarbiyasini kuchaytiradi. “Goʻzallik husnda emas, mehnatdadir”, “Kamtarlik kishi bezagi”, “Oz soʻzla-soz soʻzla”, “Xizmat qilsang, hurmat koʻrasan”, “Osmon-oftob bilan, odam-odob bilan” va boshqalar.

Kishilardagi mehnatsevarlik, kamtarlik, odoblilik kabi fazilatlar ularni el orasida goʻzal xulqli va nafis didli qilib koʻrsatadi. Bolalarni har doim orasta, yoqimli boʻlishiga yoʻnaltirib turish chin inson boʻlib ulgʻayishiga hissa qoʻshadi.

Boshlangʻich sinflarda yuqorida tahlil etilgan xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan tashqari rivoyatlar, afsonalar, hikmatli soʻzlar ham oʻqitiladi. Ularning ham katta taʼlim-tarbiyaviy taʼsiri borligini keyingi boblarda bayon etishga harakat qilamiz.

Boshlangʻich sinf “Oʻqish kitoblari”da koʻp uchraydigan tez aytishlar oʻqituvchilarning nutqini aniq, ravon, tushunarli boʻlishini, chiroyli soʻzlashni, murakkab iboralarni toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy ulgʻayishlarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari ulkan ahamiyatga ega ekanligi maʼlum boʻldi.

2.2. Xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda (axloqiy) interfaol metodlar va zamonaviy vositalardan foydalanish

Xalq og‘zaki ijodi materiallarini pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning chuqur va ongli bilim olishlariga va har tomonlama tarbiyasiga ta’sir etishining ilmiy-pedagogik asoslari olimlari va mutaxassislar tomonidan o‘rganilib chiqilmoqda.

Pedagogika fanining o‘quvchi yoshlarga bilim berish savodini orttirish, o‘qish va o‘qitishga bag‘ishlangan bo‘limi didaktika hisoblanadi.

Didaktikaning asosiy muammolaridan biri yoshlarga beriladigan bilimlar qanday yo‘llar bilan va qanday shaklda amalga oshirilishi bo‘lib kelgan. Ta’lim metodlari va uni tashkil etishning shakllari haqida mulohaza yuritilganda, umuman, didaktikaning o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisini to‘ldiradigan muammolarini uzviy va izchil bog‘liqligini eslatish o‘rinlidir.

Ta’lim jarayonining mohiyati bilishdan boshlanadi. Bilishning asosiy amaliyotidir. Insonning sezgi a’zolariga ta’sir etgan narsa va hodisalarning ayrim sifatlari seziladi. Sezgining takrorlanishi narsa va hodisalarning ongida to‘la aks etishi idrok jarayonini hosil qiladi.

Sezgi va idrokning ta’sirida ongda tasavvur hosil bo‘ladi. Tasavvur bilgan narsalarning miyada paydo bo‘lgan izlaridir. Bu izlar xotira jarayonining esga olish, esda saqlash, qayta ishga tushirish va unutish kabi hodisalari orqali to‘la, chuqur yoki xira bo‘lishi mumkin. Tafakkur bilishning yuqori darajasi bo‘lib, tasavvurda mavjud bo‘lgan bilimlar asosida yangi, xali o‘rganilmagan, sezib, idrok qilinmagan narsalarni ham bilib olishga imkon beruvchi murakkab aqliy jarayondir.

Tafakkur analiz, sintez, taqqoslash, xulosalar chiqarish kabi aqliy operatsiyalar ishtirokida sodir bo‘ladi. Inson aqli bilan eng murakkabi va mavhum hodisalarning mohiyatini anglab etadilar.

Didaktik jarayonning dastlabki bosqichi bo‘lgan bilish borliqdagi hamma mavjudodlarni o‘rganish, asl mohiyatini his etish mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Keyingi bosqich ta'limning aniq qongun-qoidalariga, ilmiy asoslangan prinsiplarga amal qilish hisoblanadi. Ta'lim jarayonining qonun-qoidalariga mos holda ta'lim mazmuni ishlab chiqiladi. Ta'lim mazmuni uni qanday metodlar orqali o'quvchilarga etkazib berish mumkinligini ko'rsatadi. Ta'lim metodlarining samaradorligini qanday vositalardan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi ta'limning qanday shaklda tashkil etishga bog'lanadi. Ta'limning asosiy shakli dars bo'lib, uni qoniqarli va foydali o'tkazish o'qituvchilarning mahoratiga bog'liqdir.

CHex pedagogi YAn Amos Komenskiy ilmiy asoslangan dars hozirgi davrga kelib juda takomillashib ketdi. Ko'p davrlar darsning samaradorligi o'qituvchining qobiliyati, bilimdonligi, dars texnikasi va texnologiyasini mukammal bilishiga bog'liq deb sanalib kelingan. Keyingi paytlarda o'qituvchi bilan bir qatorda o'quvchilarning ham dars jarayonida faol va ongli ishtiroki muvaffaqiyatining asosiy kaliti deb hisoblanmoqda. O'qituvchi qanchalik harakat qilmasin, agar o'quvchi sust, mustaqil bilim olishga o'zini yo'naltirmasa ta'lim befoyda, urinishdan boshqa narsa bo'lmay qoladi. SHuning uchun ham so'ngi paytlarda pedagogik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatini hamkorlik asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyaning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uni an'anaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidan ajratib turadi.

Aslida o'tgan asrning ikkinchi yarmida AQSHda ta'limning samaradorligini oshirish maqsadida dastlabki ta'lim texnologiyalaridan foydalanib boshlaganlar. Ular o'quvchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash maqsadida texnologik usullardan foydalanganlar. Ijobiy natija olingandan keyin faqat baholashdagina emas, balki o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish o'quvchilarning bilim egallashiga ongli va faol ishtirok etishlarini ta'minlash hamda boshqa didaktik jarayonlarni amalga oshirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llaganlar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy soslangan tizimi paydo bo'lgan. Pedagogik texnologiyalar tez orada Evropaning rivojlangan mamlakatlariga ham yoyilib boshladi. Osiyoning bir qancha davlatlarida pedagogik texnologiyalar xatto qiziqish bilan o'rganildi va amalda tatbiq etib boshlandi. YApongiya bu yo'nalishda Osiyoda karvonboshilik darajasiga erishdi.

1980 yillarga kelib sobiq sho'rolar mamlakatida ham pedagogik texnologiyalarga munosabat bildirib boshlandi. Uning sinfiy va mafkuraviy jihatlari fosh etildi.

Ayrim olimlar foydali tomonlari borligini e'tirof etishar. SHu zaylda pedagogik jarayonga texnologik yondashuv butun dunyo bo'yicha tan olindi va o'zining afzallik tomonlarini namoyon qildi. Hatto pedagogik texnologiyalarga dastlabki berilgan mukammal ta'riflardan birini YUNESKO ma'qulladi. Hozirgacha bu tarif YUNESKO ta'rifi deb hisoblanib kelinmoqda. Uning mazmuni quyidagicha: "Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tuzilish metodi" [.....].

1990 yillardan boshlab O'zbekistonlik olimlar ham pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy muammolarni o'rganishga kirishdilar. O'quvchi va o'qituvchilar ko'nikib qolgan an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan tashkil etilish shakli, amalga oshirilish metodlari, qo'llaniladigan vositalari, umuman faoliyatini yangicha olib borilishi barchada qiziqish uyg'otdi.

Professor N.Sayidahmedov Rossiyalik akademik V.T.Bespalkoning ta'minotlariga mos holda bunyodkor o'qituvchilar yaratgan texnologiyalarni tahlil qildi. O'zbekiston sharoitida qo'llanilish yo'llarini tadqiq etdi.

Professor B.L.Farbermon chet el olimlari tomonidan ishlab chiqarilgan pedagogik texnologiyalarni targ'ibot qildi. Uning qarashlarida maqsadlar tizimini yaratish, nazorat topshiriqlari, testlar chuqur tahlil etilgan.

Professorlar J.G'.Yo'ldoshev, O'.Tolipov, N.Azizjo'jaeva, M.Ochilov, A.Parpiev, M.Avmaqulov va boshqalar pedagogik texnologiyalarining turli jihatlarini o'rgandilar.

Amaliy faoliyatda qo'llashning shart-sharoiti va metodikasini asoslab berdilar. 2000 yildan keyin pedagogik texnologiya masalalariga bag'ishlangan Respublika va xalqaro konferensiyalar tez-tez tashkil qilindi. Ularda dastlabki natijalar muhokama qilindi, tajriba almashildi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan turli xil texnologiyalar taqqoslandi. Pedagogik texnologiyalarning didaktik tomonlari, psixologik jihatlariga bog'liq tomonlari mukammal o'rganib chiqildi.

Hozirgi davrga kelib etuk olimlar bilan bir qatorda oddiy maktab o'qituvchisi, hatto bolalar bog'chasi tarbiyachisi mashg'ulotlarida pedagogik texnologiya elementlarini qo'llamoqdalar.

"Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarni o'quv va ijodiy faoliyatlarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nima bilan yuritilmoqda.¹

"Taqqidmot" metodi o'rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib berilishini ta'minlaydi. Metodni qo'llashda mavzuning asosiy g'oyalari, tayanch tushunchalari, muhim

¹ Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқи асослари. (Ўқув қўлланма).-Тошкент: "Фан", 2006. - 66 б.

xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Ushbu metod o'quvchi (talaba)larda mavzu mazmunini shakllantiradi.

“Savol-javob” metodi mavzuning o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi va ularni o'quvchilarning e'tiboriga havola etadi. O'quvchilar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o'zlashtirganlik darajasini namoyish etadilar. Metodni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.

“Blits-so'rov” (inglizcha “blits”-tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarishni taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko'ra o'quvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va o'quvchilarning e'tiborlariga havola etadi. O'quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda, lo'nda va aniq javob qaytara olishlari lozim. Gurux yoki juftlikda ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to'ldirishlari mumkin. Biroq fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati o'quvchilar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodi o'quvchilarni o'rganayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish va echimlarini topishga undash orqali ularni muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar jarayonida “Muammoli vaziyat” metodini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish;
- 2) Muammoli vaziyat mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirish;
- 3) O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish;
- 4) Guruhlarning muammoli vaziyat echimini topish bo'yicha amaliy faoliyatini tashkil etish;

5) Guruhlar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o‘z echimlarini bayon qilish;

6) Guruhlarning echim borasidagi fikrlarini umumlashtirish;

7) Guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlarning maqbullik darajasini o‘rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muhokamasidan o‘tkazish);

8) Eng to‘g‘ri ma‘qul echimni aniqlash.

“Suhbat” metodi mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida savol va javob shaklida tashkil etiladigan dialogik ta’lim metodi bo‘lib, jonli muloqotga asoslanadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berish o‘quvchining fikrlashga undash imkoni mavjud.

Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o‘qituvchi va o‘quvchilar ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi. Mazkur metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘radi:

1. O‘qituvchi mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi;

2. O‘quvchilar savollar bilan tanishtiriladi;

3. Ular savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yuritishga kirishadilar;

4. Agarda o‘quvchilarning javoblari qoniqarli deb topilsa navbatdagi savol beriladi;

5. Bordiyu javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o‘qituvchi o‘quvchiga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo‘shimcha savol beradi;

6. O‘rganilayotgan masalaning mohiyati to‘la yoritilgan, suhbat jarayoniga yakun yasaladi.

“Ijodiy ish” metodi o‘quvchilarning ijodiy faollikka undash orqali ularda o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin qilish ko‘niklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning erkinligi ta’minlanadi, mustaqil fikrlari uchun

imkoniyat yaratiladi. Ular mavzuda bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradilar. YAgona talab o'quvchilar mantiqiy to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbotlay bilishlari lozim.

“T-jadval” texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarining mazmuni ularning bir-birlari bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir nechta holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi;

- 1) O'quvchilar e'tiboriga o'rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;
- 2) O'quvchilar “T-jadval” metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladi;
- 3) O'quvchilar guruhlariga biriktiriladilar;
- 4) Ajratilgan vaqt oralig'ida guruhliklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy takomillashishni amalga oshiradi, ya'ni jadvalning o'ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarini bayon etadilar;
- 5) Guruhlar tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi;
- 6) Masalaning echimi sifatida yakuniy xulosaga kelinib, yagona “T-jadval” shakllantiriladi;

“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi

“Qorbo‘ron” metodi

Mashg‘ulotni o‘zaro musobaqa ko‘rinishida tashkil etilishini ta’minlaydi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchi talabalar mavzu yuzasidan tezkor, asosli, to‘g‘ri fikrlay olishlari lozim. Mazkur metodni qo‘llash quyidagi tarzda kechadi. 1) o‘quvchi (talaba)larga muhokama uchun tanlangan mavzu (masala) e’lon qilinadi. 2) ular “Qorbo‘ron” metodining mohiyati va shartlari bilan tanishtiriladi; 3) o‘quvchi (talaba)lar ikki guruhga ajratiladi; 4) o‘qituvchi ularning e’tiborlariga mavzu yuzasidan tuzilgan savollarni havola qiladi; 5) har ikki guruh o‘quvchi (talaba)lari berilgan savolga birinchi bo‘lib, to‘g‘ri javob topishga harakat qilishlari lozim; 6) guruhlarning har bir to‘g‘ri javobi yumaloqlangan qor ko‘rinishida ularning hisobiga yozuv taxtasida yozib boriladi; 7) barcha savollar berilib bo‘lingach, guruhlar tomonidan to‘plangan ballar umumlashtiriladi va g‘olib jamoa (guruh) aniqlanadi.


“Asalari galasi” metodi. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo‘llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma’lum qilinadi. Mashg‘ulot so‘ngida masalaning eng maqbul echimi tanlab olinadi.

“Zig-zag” metodi. O‘quvchi (talaba)lar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi: 1) O‘quvchi (talaba)larda jamoa (guruh) bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi; 2) Mavzuni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejalandi. Metodni qo‘llashda quyidagilarga amal qilinadi: 1) sinf o‘quvchilari bir necha (5-7) guruhga bo‘linadi. 2) yangi mavzuni mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 qismga ajratiladi. 3) Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn va hokazolar) beriladi va uni o‘rganish vazifasi topshiriladi; 4) Belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar; 5) Vaqtni tejash maqsadida guruh a‘zolari orasidan liderlar tanlanadi, ular o‘rganilgan matnga oid asosiy ma’lumotlarni guruhdoshlariga so‘zlab beradilar; 6) Sardorlarning fikri guruh a‘zolari tomonidan to‘ldirilishi

mumkin; 7) Barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi; 8) Bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi; 9) SHu tahlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

“Baliq skleti” metodi. O'quvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Metodni qo'llashda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. 1) O'qituvchi o'quvchilarni metodni qo'llash sharti bilan tanishtiradi; 2) ular guruhlariga biriktiriladi; 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradilar; 4) guruhlar o'z echimlarini jamoaga taqdim etadilar; 5) jamoa guruhlar echimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

O'quvchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradilar:



“Zinama-zina” metodi. O'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Metod o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'nikishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:

1. O'rganiladigan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog'ozlarda ifodalanadi.
2. O'quvchilar kichik guruhlariga biriktiriladilar.

3. Har bir guruhga muayyan qismdagi matn taqdim etiladi.

4. Guruhlar o'zlariga berilgan qism matni bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadilar.

5. Belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a'zosi o'zlari bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi.

6. Barcha guruhlarining ishlari tinglangach, jamoa tomonidan o'rganilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozuv taxtasida zinama-zina ko'rinishida joylashtiriladi.

7. O'qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o'rinlarga o'zgartirishlar kiritadi.

8. Guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko'ra baholanadi (baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar o'zlari sifatli deb topgan ishni rangli kartochkalar yordamida belgilaydilar (ish ustiga kartochka yopishtiriladi) eng ko'p kartochkaga ega ishga yuqori ball beriladi).

Metodni qo'llashda o'quvchilar quyidagi shartlarga amal qiladilar: 1) kichik mavzular bo'yicha imkoni boricha ma'lumotlarni to'la bayon eta olishlari lozim; 2) kichik guruhlarining ishlariga baho beradilar.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqarida axloqiy tarbiyalashni tashkil etish shakllari

Xalq og'zaki ijodi bitmas-tuganmas xazina bo'lgani sababli uni darsliklar orqali faqat ta'lim jarayonida barcha qirralari va jilolarini his etgan holda o'rganib bo'lmaydi. SHuning uchun sinfdan va maktabdan tashqarida ham xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganilib boriladi. Bunda albatta sinf rahbari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab direktorining muovini, ota tili va o'qish o'qituvchisi, ota-onalar jamoatchiligi vakillari faollik ko'rsatishlari zarur. Bu tadbir o'ziga xos tayyorgarlik ko'rilgan, o'quvchilarni qiziqtiradigan shakllardan foydlangan holda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy shakllanishlarida sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etiladigan tadbirlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi tajribada o'z isbotini topgan desak xato bo'lmaydi. O'quvchi darsdan keyin maktabda bo'ladigan turli tadbirlarda ishtirok etadi. To'garaklarga qatnashadi. Mustaqil tayyorgarlik ko'radi. Ayrim qiziqqan sohalari yuzasidan qo'shimcha adabiyotlarni o'rganadi. Maktab kutubxonasida, ma'naviyat xonalarida, kompyuter sinflarida shug'ullanib, o'zi uchun foydali bo'lgan ko'p narsalarni bilib oladi.

Hozirgi paytda bolalar matbuoti juda ko'payib ketdi. Ulardan qiziqarlilarini ajratib oladilar va muntazam o'qib boradi.

Bolalar adabiyoti ma'naviy shakllanishida juda foydali, lekin hozirgi paytda nihoyatda narxining qimmatliligi sababli ularni sotib olib o'qish qiyin bo'lib qoldi.

SHu o'rinda, umuman, bolalarga mo'ljallangan kitoblarni, ayniqsa darslik va o'quv qo'llanmalarini narxini arzonlashtirilsa ma'qul bo'lar edi, degan fikrni bildirmoqchimiz.

Televidenie bolalar uchun kun bo'yi maxsus ko'rsatuvlar namoyish qiladi. Bolalar sevib tomosha qiladigan multiplikatsiya filmlari, ta'lim-tarbiyaviy ko'rsatuvlar, bolalarga mo'ljallangan badiiy filmlar ko'rsatiladi. Ularning hammasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'lkamiz bilan, unda sodir bo'layotgan yangiliklar

bilan tanishtiradi. Qiziqarli va foydali axborotlar oladi. Dunyoda ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lishadi. Jahon madaniyatining durdonalarini ko'z bilan ko'radi va ta'riflarini quloqlari bilan eshitadi, hatto ayrimlarini qalb bilan his etadilar. Bularning hammasi yaxshi. Ammo ayrim badiiy filmlar, teleseriallar, jangari va qo'rqinchli kinofilmlar, kriminal filmlar yoshlarda bemehrlik, shafqatsizlik, bag'ritoshlik kabi salbiy xususiyatlarga ko'niktirib, hatto qiziqish paydo qilib qo'ymayaptimikan, degan savol paydo bo'ladi. Tez-tez namoyish etiladigan giyohvandlik, sevgi-muhabbat mojarolari ham yoshlarda o'ziga yarasha iz qoldiradi.

Ota-onalar va bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi kattalardan bunday holga befarq bo'lmasliklarini so'raymiz va ogohlantiramiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5-6 soat vaqti maktabda, o'qituvchilar nazorati ostida o'tadi. Qolgan 18-19 soat vaqti asosan oilada kechadi. SHu vaqtdan oqilona foydalanish, ma'naviy kamol topishga ijobiy ta'sir etish ota va onaning qo'lida. SHunday ekan oila bolani har tomonlama rivojlanishi, o'sib ulg'ayishi, barkamol shaxsga aylanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Oilada bola tarbiyasi haqida ko'plab aqlli va foydali kitoblar yozilgan. Har xil ta'limotlar yaratilgan. Ibrat olsa arzigulik tajribalar umumlashtirilgan. Ularning qaymog'i sifatida kerakli xulosalar chiqarilgan. Biror foydali fikr bildirish, jo'yali so'z aytish ortiqcha hisoblanadi. Lekin bir narsani qayta ta'kidlamoqchimiz. Oila tarbiyasida ota-onaning jonli, hayotiy, tabiiy ibrat-namunasi farzandlaringizni kutganingizdek yaxshi inson bo'lishini ta'minlashi mumkin. A.S.Makarenko aytganidek: "bolaga har doim ijobiy ibrat-namuna bo'lish kerak. Bolani ko'rib turganda ham, ko'rmaganda ham o'zingizni namunali tuting [....]. SHunda farzandingiz sizning yo'lingizdan boradi. Bola ko'chada kimlar bilan o'ynayapti, kimlar bilan muloqotda bo'layapti, kimlarning turmush tarzini kuzatyapti, qanday sport seksiyalariga qatnashayapti, bir so'z bilan aytganda, nima bilan band bo'layapti – bularning hammasini ota-ona bilishi va nazorat qilishi kerak. Agar ijobiy ta'sir ko'rsatsa qo'llab-quvvatlanishi, aksincha salbiy ta'sir etsa uning oldini olish, bu ta'sirdan ajratish talab qilinadi. E'tibordan chetda qolganda farzandning

tarbiyasida nuqsonlarning hosil bo'lishi kelib chiqadi. Keyin uni qayta tarbiyalash, o'zgartirish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Maktabda ertak va badiiy kechalar tashkil etiladi, o'quvchilar bu jarayonda faollik ko'rsatadilar, butun maktab jamoasi uyushtiriladi. Badiiy havaskorlik to'garaklarida xalq qo'shiqlarini mahorat bilan kuylashga, qo'g'irchoq teatrlari tashkil etib, ertaklarni sahnalashtirishga qaratilgan tadbirlar bajariladi. Maktabda dostonchi shoirlar, ertak, rivoyat, topishmoq va maqollarni maromiga etkazib aytadigan kishilar taklif etiladi, ular bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Maktabda bunday uchrashuvlarni o'tkazish uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Eng avvalo uchrashuv o'tkaziladigan kishilar bilan muddati, xalq san'atining qaysi turini namoyish qilishi haqida maslahatlashib olinadi. O'quvchilar uchun foydali va ta'sirchan repertuar aniqlanadi. O'quvchilarga qiziqarli uchrashuv haqida xabar qilinadi. Zarur bo'lsa mikrofon va boshqa jihozlar taxt qilinadi. Direktor yoki muovini uchrashuvga kelganlarni o'quvchilarga tanishtiradi. Tartib bilan so'z beradi, o'quvchilarning ortiqcha harakatlarini nazorat qilib turadi.

Uchrashuv so'ngida savol-javoblar o'tkazildi va kelganlarga minnatdorchilik bildirilgan holda uchrashuvni yakunladi. O'quvchilarga ta'surotlari haqida yozma ijodiy ish bajarish topshirilishi mumkin. Estalik uchun suratga tushirildi, undan keyinroq fotoalbom va devoriy ko'rgazma tashkil etildi. Bu olingan ta'surotni kuchaytiradi va uzoq saqlanishiga sabab bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi materiallarini o'rganishning yana bir manbai – turar joy va oiladir. Pedagogika fanida "turar joy" tushunchasi mahalla, qishloq, ovul, daha, ko'cha yoki ko'p xonadonli, ko'p qavatli uylar tushuniladi. Bunday joylarda ham alohida tarbiyaviy tadbirlar qatorida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishga ahamiyat beriladi.

Oilada xalq an'analari va donishmandligi namunalari yordamida bolaga tarbiya berish imkoniyatlari cheksizdir. Ayniqsa, keksa avlod vakillari bo'lgan oilalarda milliy urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga e'tibor kuchli qaratilgan bo'ladi. Bejizga xalq maqolida: "qarisi bor uyning parisi bor", deb aytilmaydi.

SHu mavzuga qiziqib, olib borilgan tadqiqotlarimizni bitiruv malakaviy ish holatiga keltirish jarayonida maktabda o'tkazilgan kuzatuv va tajribalarimizdan tashqari bir qancha oilalarning farzandlariga ta'lim-tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan qanday foydalanishlarini ham o'rgandik. Ko'p bolali va keksa kishilar bo'lgan oilalarda xalq pedagogikasining ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi. Keksalar televizordan, kompyuterdan ko'ra jonli muloqotni yaxshi ko'radi.

Bolalar matbuoti namunasi bo'lgan "G'uncha" va "Gulxan" jurnallari orqali berib boriladigan xalq og'zaki ijodi materiallarining ta'lim-tarbiyaviy ta'siri ham o'rganib chiqildi.

Sinfdosh va maktabdan tashqari folklor namunalarini o'rganishda oynai jahon (televidenie) ko'rsatuvlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallanganlari qisman tahlil qilindi.

Boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilgan bir nechta darsda o'qitilgandan keyin o'quvchilar ishtirokida sahnalashtirildi.

Sirdaryo viloyati Guliston shahri 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari bilan amaliyot o'tash davrimda o'qish fanidan "Suhbat" mavzusidagi ertak asosida rolli o'yin tayyorladik. Dastavval ertakning mazmuni yaxshilab o'rganildi. Rollarni bajarish uchun ham sinfdagi nutqi ravon, o'ynayotgan rolini etkazib bera oladigan o'quvchilarni tanlab olindi. Tomosha ko'rsatilgandan keyin o'quvchilar uzoq muhokama qilishdilar. SHu sinfning o'zida yana ikki ertakni sahnalashtirib, o'quvchilar faolligini oshirishga harakat qildik.

Maktabning 2 va 4 sinflarida ham shu xildagi tadbirlar o'tkazib turildi. O'quvchilar ertak mazmunini mukammal bilib olganlaridan tashqari, undagi g'oyani his etdilar. O'zlarining shaxsiy xususiyatlari haqida o'ylab ko'rib, ijobiy qahramonlarga taqlid qilish xohishi paydo bo'ldi.

Sinfdan tashqari tashkil etiladigan qo'shiq, topishmoq va maqol kechalari ham qiziqarli o'tadi. CHunki har bir o'quvchi o'zining aqlli, bilag'onligi, o'tkir zahni, so'z mahorati va qobiliyatini namoyish etishni istaydi. Bu istakning ro'yobga chiqishi ular uchun katta tantana hisoblanadi. Katta yoshdagi kishilar

bilan qo‘shilib xalq qo‘shiqlarini ijro etishganlarida yoqimli ohang bilan bir qatorda unga monand nafis harakatlarni bajaradi, raqsga tushadi. Oxir oqibatda qo‘shiqning asl mazmunini his etadilar. Bu hol o‘quvchilarning nafosat tarbiyasini kuchaytiradi.

Maktabdan tashqarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish maqsadida o‘quvchilarning uylariga bordik. Ota-onalari bilan suhbatldashdik. Suhbatimizning mavzusi farzandlarining ta’lim-tarbiya olishlarida xalq og‘zaki ijodining qaysi turlaridan qo‘llanayotganlari haqida bo‘ldi. Ota-onalar tomonidan farzandlarni tarbiyalashda ishlatilib kelinayotgan hikmatlarni yozib oldik. O‘quvchilarda yorqin iz qoldirganlaridan ayrimlarini bayon qilishni lozim ko‘rdik.

Maqollar: ”Ovqat ta’mi tuz bilan, odam ta’mi so‘z bilan”, “Odamning eti harom, labzi halol”, “aybi borning tizzasi qaltiraydi”, “Otasi qilsa zo‘rlikni, bolasi ko‘rar xo‘rlikni”, “olganga o‘ntayam oz, berganga bittayam ko‘p”, “bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq”, “bahilda aql bo‘lmaydi”, “kel deyish bor, ket deyish yo‘q”, “kelin kiyar, qaynona kuyar”, “kelinning oyog‘idan, cho‘ponning tayog‘idan”, “ko‘pni yomonlagan ko‘muvsiz qoladi”, “ko‘r-ko‘rni qorong‘uda taniydi”, “ko‘rgan oshning kuyugi yomon”, “ko‘rmaganni ko‘rgani qursin”, “kutganga kun uzoq”, “mechkaydan ortsam ham, qizg‘anchiqdan ortmaydi”, “nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma”, “o‘ylamay gapirgan og‘rimay o‘ladi”, “pul topguncha hisob top”, “suv ichtirmaganga sut ichir”, “semiz qo‘yning umri qisqa”, “siniq ko‘zani sindirganga ber”, “to‘yga borsang to‘yib bor, suqligingni qo‘yib bor”, “tishi chiqqan bolaga chaynab bergan hazm bo‘lmas”, “o‘g‘li borning o‘zi bor, qizi borning izi bor”, “er yigit el g‘amida”, “eshak semirsa egasini tepar”, “yolg‘onchining chin gapi ham yolg‘on”, “ishlaganga qulday, yashaganga bekday bo‘l” va hokazo.

Topishmoqlar:

Osti tog‘ara, usti nogara.

Yuz ming chechak, bir guli lola.

Bir yaproqda o‘ttiz kelin soch taraydi

(oy, o‘ttiz kun).

“Bir palak, unda o‘n ikki handalak,

Handalakning o‘n birini edik, birin eyolmadi”.

(yil, 12 oy, ramozon ro‘zasi).

“Bitta otasi, bitta onasi,

YUz ming bolasi”

(Quyosh, oy, yulduzlar)

“Boshi bor, sochi yo‘q,

Ko‘zi bor, qoshi yo‘q.

Tanasi bor, puli yo‘q,

Qanoti bor uchmaydi”

(Baliq).

“Kichkina qozonchaning oshi totli”

(YOng‘oq).

“Kesov, kesovning boshida beshov,

Beshovning boshida besh oyna”.

(Qo‘l, barmoq, tirnoq).

“Eshitadi ko‘rmaydi,

Ko‘radi eshitmaydi”.

(Quloq, ko‘z).

“Qozonsiz qaynaydi,

Qishin-yozin tinmaydi”

(Buloq).

“Hovuz, hovuz ustida buloqcha,

Buloq ustida chiroqcha,

CHiroq ustida qalamcha,

Qalamcha ustida ayvoncha,

Ayvoncha ustida chakalakzor”

(Og‘iz, burun, ko‘z, qosh, peshona, soch).

O‘quvchi-yoshlar oldin eshitmagan, ma’nosini anglashda qiynalishi mumkin bo‘lgan topishmoqlarga izoh berdik va o‘quvchilar bilan mazmunini muhokama qildik. Masalan, “Bir palak, unda ikki hardalak, handalakning o‘n birini edik, birini emadik”. Bu topishmoq islom dinining ta’siri kuchli bo‘lgan davrlarda yaratilgan. Odamlar Ramozon oyida ro‘za tutib, Olloh farz qilgan amalni bajarib, kun bo‘yi taom iste’mol qilmaganlar. Bir yil, ya’ni o‘n ikki oyning birida taom eyilmagani, ro‘za tutilgani juda o‘rinli ifodalangan.

Baliq haqidagi topishmoqda to‘rtta mavjud belgilar ko‘rsatilgan va ularga mos holda topilishi zarur bo‘lgan sifatlar berilgan. Tinglovchi ushbu belgilar nimada mavjud bo‘lishini mantiqiy fikrlash va tafakkur qilish asosida katta qiyinchiliksiz topa oladi.

“Qozonsiz qaynaydi,

Qishin-yozin tinmaydi” topishmog‘i inson hayoti uchun eng zarur ne’mat bo‘lgan suv va uning buloqdan qaynab chiqishi juda sodda, lekin chuqur mulohaza yuritishni talab qiladi. Qishin-yozin tinmasligi O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa sug‘arib dehqonchilik qiladigan joylarda mo‘l-ko‘lchilikni ta’minlashning omili ekanligini yoshlarda aqlni charxlash barobarida kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi ham nazarda tutilgani ma’lum bo‘ladi.

Umuman olganda, topishmoqlar o‘quvchilarni o‘ylashga, mulohaza yuritishga, xulosa chiqarishga o‘rgatadigan ma’noga egaligi bilan o‘ziga xos qiymatga ega bo‘lib kelgan.

Oila davrasida hammaning ishtirokida topishmoqlar aytish, javoblarini topish bir-birlariga bo‘lgan hurmatni, mehr-muhabbatni kuchaytiradi. Bola o‘zining, ota-onalarining aql-zakovatiga ishonchi ortadi. O‘zaro iliq munosabat hosil bo‘ladi. Topishmoqlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda xalq donishmandligi qadim davrlardan boshlab hozirgacha yaratilib kelinayotgani, topqirlik va hozirjavoblikka o‘rgatayotgani yoshlarni hayratlantiradi.

So‘nggi 30-40 yil davomida pedagogika fanida muammoli ta’lim dolzarb didaktik tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda. Topishmoqlar muammoli ta’limning

mazmun-mohiyatini, metod va usullari, tashkil etish shakllarining tajribada sinalgan vositasi vazifasini o'taydi.

Oilada maqol, ertak, rivoyat, afsona, zarur bo'lganda tez aytishlardan foydalangan holda bolalarning barkamol bo'lib o'sishlariga ulkan hissa qo'shish mumkinligi aniqlandi.

Bolalar bilan kattalar orasidagi munosabatning yanada samarali bo'lishida xalq qo'shiqlarini tinglash, ulardan zavqlanish, birgalikda ijro etish yaxshi natija beradi. YUksak didni, nafis his-tuyg'ularni, nafosat va nazokatni kuchaytiradi. Mamlakatimizdagi madaniy, ma'naviy-axloqiy, badiiy estetik zavq beradigan o'zgarishlarni his etish va qadrlashga o'rgatiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi maktabning, oila va jamoatchilikning ta'siri ostida amalga oshib boradi. Bola kamolotining bu yo'nalishi uni kelajakda qanday inson, mutaxassis, o'zi va jamiyat uchun zarur hamda foydali bo'lishini belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida "kichik", "arzimas", "mayda-chuyda", degan narsalar bo'lmasligi kerak. Ana shu arzimas narsalardan keyinchalik "ulkan" muammolar kelib chiqishini doim esda saqlash zarur. Maktabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo'shish mumkin ekanligi aniqlandi.